

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 371 (09)

BOLTAYEVA SHAXNOZA HAKIMOVNA

**IX-XV ASRLARDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK G‘OYALARNING
RIVOJLANISHI**

5A 140804 – Ijtimoiy pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.
«Pedagogika» kafedrası mudiri
prof. Hasanova K. _____

Ilmiy rahbar:

Dots. Ahrorov Yu.A. _____

«_____» _____ 2012 y

M.O‘.

Samarqand – 2012

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangilanishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Ta'lim sohasini isloh qilishga oid davlat siyosati ta'lim tizimi rivojlanishi strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. 1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda amaliy dastur bo'ldi. Ta'lim sohasidagi mazkur hujjatlar Respublikada ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgani holda, xalq ta'limi sohasining barcha yo'nalishlarida modernizatsiyalash ishlariga katta yo'l ochildi. Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad – xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi» [8, 137].

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning axloqiy va ma'naviy takomili ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» 2006 yil 25 avgustdagi PQ-451-sonli Qarorida ko'rsatilganidek «Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda» [16].

Bu vazifani hal etish uchun oliy ta'lim tizimi, jumladan oliy o'quv yurtlari

ta'lim-tarbiya jarayonida xalqimiz tarixi, madaniyati, ma'naviyatiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish, baholash va ulardan o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q» [13, 171]. Shu jihatdan ta'lim-tarbiya tarixi boy ma'naviy merosga ega bo'lib, uni o'rganish va ta'lim iste'moliga kiritish kadrlar tayyorlash milliy modelida ko'rsatilganidek, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari yaratgan o'lmas asarlar dunyo fani va sivilizasiyasiga qo'shilgan mislsiz hissadir. Ular orasida Muhammad Muso al-Xorazmiy (783–850 yy.), Ahmad al-Farg'oniy (tax. 797–865), Abu Rayhon al-Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Nasr ibn Iroq (958–1034), Abu Sahl Masihiy (977–1011), Abulxayr ibn Hammor (961–1038), Abu Ali ibn Miskavayx (vaf. 1030), Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038), Abu Abdulloh Iloqiy (vaf. 1068), Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vaf. 997) va boshqalarning asarlari alohida o'rin tutadi. Ma'mun akademiyasi olimlaridan o'ziga xos ma'naviy-pedagogik meros qolgan. Ularning didaktik asarlarida ifodalangan saxovatlik, insonparvarlik, halollik, do'stlik, Vatanga muhabbat, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik, adolatlilik, sadoqatlilik, jonajon o'lkaga muhabbat, ijodkorlik, zukkolik, poklik, qanoatlilik, to'g'rilik hamda boshqa milliy va umuminsoniy sifatlarni kollej o'quvchilari ongiga singdirish ma'naviy ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Allomalarning merosi va ijtimoiy pedagogik qarashlari, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muammosi bilan pedagogika, falsafa, adabiyotshunoslik, tarix, inson va jamiyat, etnografiya va boshqa fanlar namoyandalari u yoki bu darajada shug'ullanib kelmoqdalar.

Pedagoglardan O.Musurmonova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, U.Mahkamov, M.Inomova, Q.Quronboyevlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy

madaniyatni shakllantirish, mustaqillik yillarida tarbiya jarayonlari va yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratishga bag'ishlangan yirik tadqiqotlar olib bordilar [24], [34], [29], [28], [25], [23], [33].

Tadqiqotchilardan Q.Karimov, N.Husanxo'jayev, M.Maqsudov, Q.Mahmudov, A.Axmetova va boshqalar Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta'limiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etganlar.

S.Nishonova «Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi»ga doir tadqiqot ishida Sharq Uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya masalalari, qomusiy olimlar ilmiy merosida komil inson tarbiyasi, o'sha davr ta'limiy-axloqiy asarlarida barkamol inson tarbiyasi masalalarini yoritib beradi va komil insonga xos xislatlar ko'rsatadi. Olimaning ta'kidlashicha, Sharq Uyg'onish davri ta'limiy-axloqiy asarlarida barkamol shaxs tarbiyasida aqliy, axloqiy, jismoniy, nafosat tarbiyasi asosiy mezon bo'lib kelgan. Ana shu mezonlarni tarbiyalashda inson egallashi zarur bo'lgan ma'naviy xislatlar ham alohida ajratilib ko'rsatiladi [25].

Tadqiqotlarning ma'lum qismi tasavvuf ta'limoti vakillarining axloqiy tamoyillariga bag'ishlansa, ba'zilarida ayrim shaxslarning pedagogik ta'limoti tadqiq etiladi. Masalan, K.Nosirov «IX-XI asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqida g'oyalarini» (Al-Buxoriy va al-Forobiy asarlari misolida) tadqiq etar ekan, inson axloqiy kamolotining asosiy shart-sharoitlari va kamolot mezonlari bo'lgan axloqiy xislatlarni aniqlaydi [27].

F.A.Babashev esa pedagogika tarixida Xorazmda tashkil etilgan «Bilimlar uyi» – «Ma'mun akademiyasi» (1003–1014) va unda faoliyat ko'rsatgan olimlar Abulayr Hammor, Ibn Hamid al-Xorazmiy, Abu Sahl al-Masihiy, Abu Ali Ahmad ibn Miskavayx, Abumansur as-Saolibiyning ilmiy merosi bilan bir qatorda – axloqiy qarashlarini ham pedagogik jihatdan tadqiq etadi [22].

O'zbek xalq pedagogikasi tarixida juda ko'p didaktik asarlar yaratilib, ularni

chuqur o'rganish, ulardagi eng qimmatli fikrlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotga keng tadbiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Ilm sohiblari ta'lim-tarbiya sohasiga oid qimmatli asarlar yaratgan, ularning har bir ta'limiy-axloqiy asari bo'lib ma'naviy tarbiya, pedagogik fikrlar ilgari surilgan, ularning tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilgan.

Asrlar osha bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular keng pedagogik jamoatchilik mulkiga aylanib, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, uni hayotga tayyorlash ishida katta yordam berib kelmoqda. Bu pedagogik meros ayniqsa hozirgi ma'naviy qadriyatlar tiklanayotgan bir sharoitda alohida qimmatlidir.

O'zbekiston Respublikasi pedagogika ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar va o'quvchilar ma'naviy sifatlarni tarbiyalashning muhim shartlaridan biri ularni Sharq allomalarining pedagogik qarashlari asosida ma'naviy jihatdan shakllantirish, buning uchun pedagogika tarixi materiallaridan unumli foydalanishdan iboratdir.

O'quvchi-yoshlar va o'quvchilarni o'tmish meros, qimmatli manbalar yordamida ma'naviy jihatdan tarbiyalash nihoyatda dolzarb bo'lganligi uchun ham bu sohada izlanishlarni amalga oshirish ehtiyoji vujudga kelmoqda.

Pedagogika fani materiallari yordamida ta'lim tizimida o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashni rivojlantirish maqsadida ushbu kurs mazmunini yangi materiallar bilan boyitishga intildik.

Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Abdulloh Iloqiy, ularning pedagogik qarashlari «Pedagogika» kursi mazmunida o'z ifodasini topmagan. «Pedagogika» bo'yicha mavjud darsliklarda esa o'quv materiallari va ma'lumotlar Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabilarning pedagogik qarashlarini yoritishdan iborat bo'lib qolgan.

Mazkur ishlar Sharq mutafakkirlarining komil inson tarbiyasi, uning kamolga yetishining asosiy talablarini yoritib berishga bag'ishlanadi. Bu tadqiqotlar

muhimligini tan olgan holda ta'kidlash joizki, mualliflar mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini izchil tadqiq etganlar, lekin ular «Pedagogika» kursini o'qitish jarayonida tarixiy manba bo'lgan IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalar, bu davrda yashab o'tgan mutafakkirlarning qarashlari asosida o'quvchilarni tarbiyalash muammosi maxsus tadqiq qilmaganlar.

Ma'lumki, ma'naviy barkamol avlod o'z-o'zidan tarbiyalanib qolmaydi. Bugungi o'quvchi-o'quvchi ertangi kunda barkamol insonni shakllantirish bilan shug'ullanadigan mutaxassisdir. Bo'lajak o'qituvchining o'zida, avvalo, yetuk kasbiy sifat, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat, mahorat hamda kasbiy ko'nikmalar teran rivojlangan bo'lishi shart. Bu esa O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyaning yagona pedagogik tizimini yaratishni muqarrar qilib qo'ydi. IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalardan o'quvchi-yoshlar va o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga oid nazariy tahlil tadqiqot mavzusining muhimligini belgilaydi. Shunga ko'ra, **«IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishi»** mavzusini tadqiqot ishi uchun tanladik.

Tadqiqot maqsadi: IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishini tahlil qilish va o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish.

Tadqiqot obyekti: IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarni tahlil qilish hamda o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda tarbiya va ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari, maktab va madrasalarda o'quv mashg'ulotlari mazmuni tahlili.

Tadqiqotning ilmiy farazi: agarda:

- IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishi qiyosiy tahlil qilinsa;
- pedagogika tarixini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash imkoniyatlari aniqlansa;
- XI-XV asrlarda O'rta Osiyoda maktab va madrasalarda o'quv mashg'ulotlari mazmunini qiyosiy o'rganilsa;
- Pedagogika kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning tarbiyalashda

pedagogika tarixi o'quv fani mazmunida mujassamlashtirilgan ajdodlar merosidan keng foydalanilsa;

– Temuriylar davri ta'limi va tarbiya tizimini darsda o'rganish mazmunini belgilashda tarixiy-pedagogik, psixologik va uslubiy ta'minoti yaratilib, pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazilsa;

– IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishini o'quvchilar ongiga singdirishga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa, pedagogika fanini o'qitish mazmuni yanada boyib, o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash jarayoni samarali kechadi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Muammoga oid tarixiy-falsafiy, psixologik, pedagogik va uslubiy manbalarni o'rganish;

2. IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda tarbiya va ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

3. XI-XV asrlarda O'rta Osiyoda maktab va madrasalarda o'quv mashg'ulotlari mazmunini qiyosiy o'rganish;

4. Temuriylar davri ta'limi va tarbiya tizimini darsda o'rganish mazmunini belgilash;

5. Temuriylar davri ijtimoiy pedagogik qarashlarini sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'rganishning shakl va vositalarini ishlab chiqish

6. IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda tarbiya va ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish;

7. Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish va ularning samaradorligini tahlil qilish, baholash.

Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlarni o'rganish; pedagogik kuzatish; anketa so'rovi; suhbat; intervyu; test so'rovi; tahlil qilish, umumlashtirish; pedagogik tajriba uslublari.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident

I.A.Karimov hamda tarixchi, faylasuf, psixolog, pedagog olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy–ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi PQ-451-sonli Qarori, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi, O'zbekiston Respublikasining «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», Vazirlar Mahkamasining ta'lim masalalariga doir qarorlari, Sharq mutafakkirlarining yoshlar ma'naviyatini tarbiyalash va rivojlantirish to'g'risidagi ta'limotlari, Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlari, shuningdek, falsafa, pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar va ilg'or tajribalardan iborat.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda tarbiya va ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari
- XI-XV asrlarda O'rta Osiyoda maktab va madrasalarda o'quv mashg'ulotlari
- Temuriylar davri ta'limi va tarbiya tizimining zamonaviy ta'lim tizimi bilan o'zaro bog'liqligi
- Temuriylar davri ijtimoiy pedagogik qarashlarini darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'rganish.

Ilmiy yangiligi:

- IX-XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishi o'rganildi;
- XI-XV asrlarda O'rta Osiyoda maktab va madrasalarda o'quv mashg'ulotlari mazmuni qiyosiy tahlil qilindi;
- pedagogika kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning tarbiyalashda pedagogika tarixi o'quv fani mazmunida mujassamlashtirilgan ajdodlar merosidan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi;
- temuriylar davri ta'limi va tarbiya tizimini darsda o'rganish mazmunini belgilashda tarixiy-pedagogik, psixologik va uslubiy ta'minoti aniqlandi, pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati: «Pedagogika tarixi» kursi yangi materiallar bilan boyitilganligi; tadqiqot mohiyatini yorituvchi tarixiy manbalar va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti va asarlarida bayon etilgan ijtimoiy pedagogik g'oyalar, ularning tasnifi, mohiyatining yoritilganligi; dars jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida IX-XV asrlardagi ijtimoiy pedagogik g'yoalarda foydalanishning nazariy asoslari yaratilganligi va ilmiy-uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuv asosida pedagogika tarixini o'qitishda o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi; oliy ta'lim muassasalarida «Pedagogika», «Pedagogika tarixi», «Etnopedagogika», «Ma'naviyat asoslari» fanlarini o'qitishga oid nazariy-uslubiy mazmunda materiallar tayyorlandi. Tadqiqot natijalaridan pedagogika tarixini o'qitishda o'quvchilarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash amaliyotini yangilash, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlash, shuningdek, metodik tavsiyalardan o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ma'ruzalar sifatida foydalanildi.

Dissertasiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. IX-XV ASRLARDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK G'OYALAR RIVOJLANISHINI O'RGANISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1. IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda tarbiya va ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, pedagogik ta'lim tizimi respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar sharoitida rivojlanish davriga kirdi. Zero, hozirgi kunda iqtisodiy madaniyati, ma'naviy va moddiy qadriyatlarini insonparvarlik, yuksak axloqiy ideallar ruhida rivojlantirayotgan mustaqil demokratik davlatni barpo etish jarayoni amalga oshmoqda.

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muxim vazifalaridan biri milliy ma'naviyatni yuksaltirish, milliy mafkurani shakllantirishdan iboratdir. Bu murakkab va dolzarb vazifani hal etish uchun bosib o'tilgan tarixiy yo'lni tahlil qilish, ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, shu asosda tarbiya, ayniqsa bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik vositalar tizimini yaratish zaruriyati mavjud. Ma'lumki, jamiyat hayoti va unda yashovchi kishilarning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishi milliy mafkura, talabalar ta'lim-tarbiyasi hamda bo'lajak mutaxassislarning keng ko'lamda intellektual salohiyatga ega bo'lishini talab qilmoqda. Tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, har qanday davlat tizimi o'zining asosiy maqsadi sifatida yoshlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan ma'naviy boyliklar, ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlarni singdirishni taqozo qiladi. Ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlar yosh avlodning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishida zamin bo'lib xizmat qiladigan moddiy, ma'naviy boylik.

Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda vujudga kelgan qadriyatlar dolzarb va ahamiyatli.

O'z tarixini chuqur bilgan, uning eng qimmatli jihatlarini anglab olgan, mohiyatini his etgan kishigina o'z millati va xalqining kelajagini tasavvur qila oladi, chunki milliy madaniyat va mafkuraga zamin, tayanch bo'lib xizmat

qiladigan fikrlar, pedagogik qarashlar, yondashuvlar, konsepsiyalar asrlar davomida shakllangan. Ajdodlarimizning ijtimoiy pedagogik qarashlari va ta'limotlarining paydo bo'lib, rivojlana boshlash tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi.

Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy qadriyatlarni keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz, shoirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish, e'tiqodini va xalqning o'z madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni rivojlantirish, xalq mehnati, vatanga muhabbat tuyg'usini yoshlarda qaror toptirish uchun xizmat qiladi. Ilm-fan, madaniyat birmuncha taraqqiy etgan IX-XV asrlardagi ijtimoiy pedagogik g'oyalarni o'rganish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

O'zbekiston xalqlari ko'p asrlarga borib taqaluvchi madaniyatga, ega ekanligi hammaga ayon. Ana shu madaniy yodgorliklar inson qo'li, aqli, maxorat va malakasi, o'tmishdan qabul qilib olgan hayotiy tajribasi natijasidagina milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga, san'at va adabiyot asarlariga aylangan. Demak, madaniyat o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmay, ko'p darajada ta'lim va tarbiya mevasi sifatida shakllangan har qanday olim, usta, siyosiy arbob o'z ustoziga keyinchalik esa shogirdiga ega bo'lgan. Bu ustozu-shogirdlik an'anasi faqatgina zamondoshlar orasidagina emas, balki o'tmish va hozirgi avlod vakillari orasida bilvosita davom etgan.

Shunday ekan, O'zbekiston xalqlari madaniyati pedagogik qarashlari uzoq asrlarga taqaluvchi o'z qadimiy ildiziga ega bo'lib, biz bu ildiz mohiyatini o'rganmasdan turib, o'z zamonamiz uchun foyda keltiruvchi, respublikamizning gullab yashnashi uchun vatanparvarona kurash olib boruvchi avlodni tarbiyalay olmaymiz.

VI-VIII asrlarga kelib O'zbekiston teritoriyasida ko'chmanchi qabilalar bosqini natijasida turkiy elatlar vujudga kelishdi. Bu asrlarda ro'y bergan tarixiy voqealardan yana bir muhimi Sharqda Islom dinining keng tarqalishi bo'ldi. Bu dinning O'rta Osiyoda yoyilishida arab xalifaliganing yaqin O'rta Sharq hamda O'rta Osiyoni o'z tasarrufiga olishi asosiy sabab bo'ldi.

Shuni alohida qayd etish kerakki. Sovet tuzumi davrida Islom madaniyatining baynalmilliy, umuminsoniy xarakteri rad etildi, uning insonparvarlik g'oyalari shubha ostiga olinib, taraqqiyot dushmani sifatida baholanib kelindi. Vaxolagki, uning asosiy g'oyaviy prinsiplarini nazardan kechiradigan bo'lsak, yuqoridagi fikrlarning nohaqligiga ishonchimiz komil bo'ladi:

1. Faqatgina yakkayu-yagona Ollohga ishonish, undan qo'rqish va bo'yin egish (bu prinsip insonning inson shaxsiga sig'inishining oldini oladi, buni man etadi)

2. Barcha insonlarning Ollohning oldida teng ekanligi (mazkur shart xam jamiyatning barcha sinfiy va tabaqaviy, irqiy bo'linishidan qat'iy nazar, millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiluvchi omildir)

3. Adolatlilik (millatlararo tenglik madaniy va iqtisodiy munosabatda bo'lish uchun eng zarur bo'lgan axloqiy sifat)

4. Tinchliksevarlik (inson zurriyotining davomiyligini, ma'naviy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi sifat)

5. Mexr-shavqatlilik (botiniy insoniy madaniyatning zuxr etishi, millatlararo muloqot madaniyati tarbiyasining tarkibiy qismlaridan biri)

6. Ma'naviy axloqiy soflik (yuqorida zikr etilgan umuminsoniy sifatlar uzviyligidan xosil beruvchi integrativ omuxta umuminsoniy qadriyat)

Muqaddas Qur'onning 114 surasining hammasida mazkur asosiy axloqiy prinsiplar targ'ib etiladi. Uning 1400 yildan beri har qanday cheklash va man etishlarga qaramay xalq orasida yashayotganligining muxim sabablaridan biri ham eng ezgu, umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilganligi milliy qadriyatlarni e'zozlashi (bu o'rinda millat va din bir xil ma'noni anglatadi) din axlida talab etganligidir. Bu fikrimizning dalili sifatida Sovet tuzumi yemirilgandan so'ng

Respublikamiz xalqlarining Islom aqidalari va madaniyatini o'z milliy madaniyati ramzi sifatida qadrlayotgani, qadimiy mehr-oqibatning tiklanishida diniy muassasalarning beqiyos darajada ijobiy rol o'ynayotganiliga qabilarni eslash kifoya.

O'rta Osiyoga Islom dini bilan birga davlat tili sifatida arab tili ham kirib keldi. U o'zi bilan beqiyos boy ilmiy-nazariy ahamiyatga molik bo'lgan jahon falsafiy, tabiiy va badiiy fan yutuqlarini ham bu zaminda yashovchi xalqlar orasiga olib kirdi. Katta "Ipak yo'lida" joylashgan O'rta Osiyo bu davrda yaxshi rivojlangan qishloq xo'jaligaga, hunarmandchilik, boy ma'naviy madaniyatga ega edi. Bu esa arab xalifaligiga mansub bo'lgan xalqlar madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi, har ikki madaniyat bir-birini o'z ijobiy yutuqlari bilan boyitdi.

Arab xalifaligi hukumronlik qilgan ilk davrlarda uning keng zaminida musulmonlar, nosroniylar, nojusiylar, majusiylar, buddistlar, yahudiylar va boshqa din qavmlari yashardilar. Bu albatta, ko'p sonli diniy sektalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ateizmning vujudga kelishi islom qavmini chiniqtirdi, xolos. Shu bilan bir qatorda O'rta Osiyoning iqtisodiy-madaniy, aloqalari jugrofiyasi ham kengaydi. Bu davrlarda Ray, Samarqand, Mavr, Buxoro. Shosh, Damashq, Bag'dod kabi shaharlar ayniqsa rivojlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi muvaffaqiyatlar jamiyatning ma'naviy madaniyatiga, ma'rifiy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

VIII asrning II yarmidan boshlab xalifalik teritoriyasida dunyoviy bilimlar tarqala boshladi, bunga albatta Muqaddas Qur'onning ham bir musulmon va muslimaning ilm olishi farzdir, degan oyati dasturulamal bo'lib, xizmat qilgan desak yanglishmaymiz. Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning jahon fani xazinasiga qo'shgan xissalari buning yaqqol dalilidir.

Bilim sohalari bu davrda "arabiy" va "noarabiy" deb ikkiga ajratilgan. Arabiy ya'ni diniy fanlar gruppasiga islom huquqi (Kamol), arab grammatikasi (sarf va navh), she'r nazariyasi (avzon), payg'ambarlar tarixi (tarixul anbiyo) kabilar kiritilgan. Xar ikkala fanni mukammal egallagan kishilargina ustozlik

darajasiga erishib, o'z shogirdlariga shaxsan "ijoza" (diplom) ya'ni ustozlik qilishga ruhsat bera olgan.

Ko'pmillatlilik arab xalifaligida tarjimachilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ko'pgina mashhur olimlarning, jumladan, Aristotel, Aflotun, Aristarx va boshqalarning asarlari yerli millat xalqlari tillariga, va aksincha esa, arablarning tiliga forsa "Shahrizod va Parvoz" badiiy didaktik asar tarjima qilindi.

Yirik davlatni boshqarish, boshqa davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqa yuritish muammolari tabiiy ravishda xalifalikning dunyoviy bilimlarni o'rganish muammosi bilan shug'ullanishga majbur etdi. Natijada xalifa al-Mo'min o'z saroyida "Donish uyi" nomli ilk fanlar akademiyasini ochib unga boshchilik qilishni al-Xorazmiyga topshirdi. Bu ilm dargoxida mashhur olimlar al-Farg'oniy, Xabash al-Xasib, Abu al-Balxiy kabilar turli fanlar soxasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishdi. Agar bu faktga diqqat qilinsa, Islom dunyosida ensiklopedik bilimlar dargoxi - fanlar akademiyasiga bundan 1150 yil ilgari asos solinganligi ishonch xosil qilish mumkin. Afsuski, bu ilm maskanida olib borilgan ilmiy-tadqot yetarlicha o'rganilgan emas.

IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda somoniylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlat ishlari arab fors tillarida olib borilib, uning asoschisi balxlik Somonxudot edi. Rofi' ibn Lays qo'zg'olonini bostirishda bergan yordam uchun Somonxudot avlodiga arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrning eng muxim viloyatlarda hukmronlik qilish xuquqi berildi. Somoniylardan Islomiy Somoniy 900-908 butun xurosonni, shimoliy va Sharqiy Eronni va Movaraunnahrni o'z tasarrufiga oldi. Bu vaqtda Eronda arab tili hukm surar edi.

Somoniylar davrida zullisonaynlik va uch tillilik rivojlandi, maktab va madrasalarda arab va fors tillarida baravar va bir vaqtning o'zida ta'lim-tarbiya ishlari olib borilda. Somoniylar sulolasi Mansur II Buxoroning qoraxoniylar tomonidan zabt etilishi natijasida tugatildi. Somoniylar davrida mamlakat madaniy jihatdan yuksalgan ko'pgina shaharlarda madrasalar, qiroatxonalar qurilgan edi. Ilm-fan, me'morchilik, naqqoshlik va kulolchilik taraqqiy etgan. Amir saroyi

kutubxonasi o'z boyligi bilan mashxur bo'lgan. Somoniylar davrida Forobiy, Beruniy, Rudakiy, Ibn Sino, Firdavsiy kabi buyuk ma'rifatparvarlar yetishib chiqqan.

Bu davrda yuqorida ta'kidlaganimizdek, bilimliliklarning mezoni-qomusiy bilimlarga egalikdir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bu davrda pedagogik qarashlar islom aqidalari qorishiq yug'irilgan tarzda bayon etilgan bo'lib, o'z davri uchun harakterli bo'lgan xususiyatlarni o'zida ifodalagan. Bilimlar va haqiqatni ikki xil yo'nalishi, ya'ni materialistik va idealistik. Bu davr pedagogik qarashlari tarixida ham aks etdi hamda mutafakkirlar dunyoqarashining asosini tashkil etardi. Xuddi shu davrdan boshlab xuddi falsafada bo'lgani kabi qarashlar tarixida materialistik dunyoqarash tabiiy fanlarda erishgan ilmiy yutuqlar maxsuli, uning inikosi sifatida egalladi. Bu to'g'rida asosiy tasavvur al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa olimlarning asarlaridagina olishimiz mumkin. Masalan, al-Xorazmiy jamiyatning ma'naviy rivojlanishi uchun aniq fanlarni o'rganishning aniq ahamiyati va uning xayotdagi amaliy ahamiyatini asoslab berdi.

Forobiy va Ibn Sinolar esa Aristotelning falsafiy g'oyalarini yanada rivojlantirib, aniq va tabiiy fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarini umumlashtirilgan holda ong, ijtimoiy hayot insonning ma'naviy rivojida ta'lim va tarbiya roliga doir butun bir ta'limotni yuzaga keltirishdi. Garchi ularning konsepiyasida materialistik unsurlar mavjud bo'lsada, ularning qarashlari Yevropa materialistlari qarashlaridan farqli o'laroq, Islom g'oyayalari bilan uyg'unlashib ketadi, ularning qarashlarini panteistik yo'nalishga mansub desak to'g'riroq bo'ladi.

O'rta asrning Ibn Sino va boshqa mutafakkirlar asarlarida ijtimoiy muhitning inson tarbiyasidagi roliga doir muhim qarashlar mavjud. Ular muhitning kishi tarbiyasidagi rolini tan olgan holda undagi tug'ma individual qobiliyatning ham tarbiya jarayonidagi rolini ijtimoiy baholadilar. Ular o'z falsafiy qarashlaridan kelib chiqqan holda tarbiyada asosiy diqqatni aqliy, axloqiy, mantiqiy va jismoniy shakllanishga qaratdilar.

Zakariya al-Roziy, Ibi Sino, Jurjoniylarning tabiiy kuzatishlari tufayli insonning bilish va ruxiy faoliyatini o'rganishga doir boy material to'plandi. Insondagi besh sezgi a'zolarini ular tashqi muhit to'g'risidagi ilk bilim manbalari deb hisobladilar. Bu mutafakkirlar tomonidan ruhiy jarayonlar tasavvur, xotira, idrok, hissiyotga berilgan umumiy xarakteristika hozirgi zamon ruxshunosligi yutuqlariga nihoyatda yaqindir.

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolarning pedagogik qarashlari keyingi davrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar Ibn Rushd, Nasriddin Tusiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Jaloliddin Devoniy, Munis Xorazmiy, Ogaxiy, Berdaq, Zavqiy, Furqat, Muqimiy, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy va boshqalar pedagogik qarashlariga barakali ta'sir ko'rsatdi.

IX-XII asrlar madaniy hayoti arab xalifaligada ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq edi. Xalq harakati va xalifalik zaiflashdi va parchalandi. Biroq uning zaminida yashagan xalqlarning madaniy iqtisodiy aloqalari to'xtab qolmadi. Bu aloqalar XIII asrgacha, ya'ni Chingizxon istelosigacha samarali ravishda davom etdi. Chingizxon bosqini O'rta Osiyo xo'jaligi va madaniy hayotini yer bilan yakson qildi. Bu davrda so'fizm ta'limoti keng tarqaldi. XII-XIII asrlarda so'fizm kuchli g'oyaviy oqim sifatida xalq manfaatini ximoya qilib chiqdi. Bu davrlarda quyidagi sufiylik tariqatlari vujudga keldi: Kubraviylik, Yassaviylik, Naqshbandiylik va x.k.

Shuni aloxida qayd etish kerakki, so'fizm, birinchidan. islom dini asoslarining sofligini himoya qiluvchi yo'nalish, ikkinchidan, istelochilik va zo'ravonlik siyosatiga qarshi ma'naviy birlashgan yirik kuch sifatida islom madaniyati, musulmon xalqlari ma'naviy madaniyati hamda o'ziga xosligini ximoya qiluvchi oqim sifatida muhim rol o'ynaydi. Buning dalili sifatida J.Rumi, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, A.Navoiy kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodiy faoliyatini keltirishimiz mumkin.

O'rta Osiyo XIV-XV asrlarga kelib buyuk lashkarboshi Amir Temur sa'y harakati tufayli mo'g'ullar istibdodidan qutuldi mustaqil davlatga ega bo'ldi. Natijada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida keskin yuksalish

yuz berdi. XV asrga kelib esa o'lka o'zining yuksak darajadagi taraqqiyot bosqichiga uyg'onish davriga qadam qo'ydi. Bu davrda O'rta Osiyo jahonda Qozizodd Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Navoiy, Jomiy kabi allomalarni yetkazib berdi.

Bu davrda O'rta Osiyoda qator ilmiy va madaniy muassasalar qurildi. Jumladan, Samarqand va Buxoroda Ulug'bek tomonidan madrasalar barpo etilib, unda ishlash uchun yirik olim va pedagoglar taklif qilindi. Ulug'bek maktab va maorif ishini davlat ishi deb bilib, o'zi uning taraqqiyotiga boshchilik qildi, madrasalarda ta'limning shakllantiruvchi rolini oshirishga dunyoviy va diniy bilimlarni birgalikda o'qitishga katta e'tibor berdi. Bu davrlarda Samarqand tabiiy - matematik fanlar markaziga aylandi. Bu davrda pedagogik qarashlarda odil, ma'rifatparvar podsho g'oyasi yetakchi o'rinni egalladi, bu g'oyaga ko'ra aqilli ma'lumotli xukumdor xalq hayotini tubdan o'zgartirishga qodirdir. (Masalan. A. Navoiy) bu g'oya ham badiiy adabiyotda o'z aksini topgan. O'sha davrga oid tarixiy va madaniy manbalarga nazar tashlasak feodal davlatlarda maktab va maorif axvoli, ulardagi ta'lim-tarbiya sistemasi uning maqsad va vazifalari asosiy xususiyatlari haqida bir qator ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari. Sharqning buyuk ensiklopedik olimi al-Xorazmiy (783-850) faqatgina talantli olim bo'libgina qolmay, balki mohir nazariyotchi pedagog ham edi. Uning hayoti va faoliyatiga doir juda oz ma'lumotlar bizning davrimizga qadar yetib kelgan. Uning haqidagi ilk ma'lumot X asrda yashagan arab muallifi Ibn an-Nodirning "Fixrast" asarida mavjud bo'lib, unda quyidagi ma'lumot keltirilgan. "Al-Xorazmiy uning ismi Muhammad ibn Muso, kelib chiqishi Xorazmlik. U al-Ma'mun tomonidan shaxsan "Donish uyiga bajaruvchi etib tayinlangan edi, astronomiya ilmining bilimdorlaridan hisoblanadi....."¹

Uning qalamiga quyidaga asarlar mansubdir: "Zich", "Quyosh soatlari haqidagi kitob", "Astrolob bilan ishlash. to'g'risidagi risola", "Astrolob tuzilishi

¹ Yu.Axrоров "O'zbekistonda pedagogik fikrlar taraqqiyoti tarixidan" maxsus kursga doir ma'ruzalae matni. _ T.: TDPI. 1992.15-bet

haqida risola", "Tarix kitobi", "Aljabr va almuqobilani xisoblashga oid qisqacha risola", "Hind hisobiga doir risola", "Ko'paytiruv va ayiruv amaliga doir risola", "Yer surati haqida risola", "Astrolob yordamida kutubni aniqlash", "Yahudiylar yil xisobini aniqlash bo'yicha risola", "Qibla o'rnini aniqlash to'g'risida risola" va x.k.

Al-Xorazmiy olim sifatida Xorazmdalik paytidayoq shakllangan IX asr boshlarida yirik olim sifatida tanilgan edi. Keyinchalik Marf shahriga borib, al-Ma'mun saroyiga xizmatga kirdi. 819 yilda al-Ma'mun xalifa bo'lgach u bilan Bag'dodga ko'chib borgach uning saroyi qoshida tashkil etilgan fanlar akademiyasiga boshchilik qiladi.

Bag'dodga ko'chib borgan olimlar orasida o'zgacha nufuzga ega bo'lgan Xorazmiy astronomiya, matematika, jug'rofiya va boshqa fanlar sohasida yutuqlarga erishadi, algebra faniga asos soladi.

Shunisi xayratlanarliki uning xar bir asari qaysi fan sohasiga bag'ishlangan bo'lmasin shu soxada birinchi, boshlovchi sifatida maydonga kelgan.

Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiy jamiyatning har tomonlama taraqqiyot etishi uchun aniq fanlarning tutgan o'rni naqadar katta ekanligani amalda isbotlab bergan olimdir. Xorazmiy algebra fanidan birinchi bo'lib yaratgan asari bilan algebra faniga asos soldi va uning asosiy tushunchalari, mazmuni va qoidalarini belgilab berdi. Algebradan yozilgan bu asar Yevropada ham katta shuhrat qozonib, Fransuz matematigi Viyet (1540-1603) zamonasigacha algebradan asosiy darajali kitobi bo'lib keldi. Bu kitobning arabcha qo'lyozmasi (1342-yil) Oksford universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. U "Kitob al-Muxtasar fi xisob al-Jabr va al-muqoballa" ya'ni, "al-Jabr va al-muqobala" hisobi haqida "Kichkina kitob" deb nomlanadi. Agar tenglamaning $6x-7=0$ bir tomonida yoki ikkala tomonida ayiriluvchi bo'lsa, bitta kamayuvchini o'zini qoldirish uchun ayiriluvchini tashlab, bunga teng miqdorni ikkinchi tomonga qo'shish "al-Jabr" deyiladi. Al-Jabr keyinchalik matematikaning alohida bo'limiga aylanib "Algebra" nomi bilan atala boshladi. Olimning nomidan esa keyinchalik

"Algoritm" termini yasaldi. "Al-muqobala" so'zi esa $5X+4=9X$ kabi tenglamalarni yechish uchun ikkala tomonidan besh $5X$ ni ayirish ma'nosini bildiradi.

Birinci darajali tenglamalarni yechish uchun ishlatiladigan amallar "al-Jabr va al-muqobala" deb taladi. U o'zining "Al-jabr va al-muqobala" asarida o'zining ijodiy faoliyat turlari haqidagi tasnifini bayon qilar ekan barcha ijodkorlar, ziyolilar uch guruhga bo'ladi:

1. O'tmish ijodkorlari tomonidan hal etilmagan yangilikni, kelajak avlodga qoldiruvchi olim va pedagoglar (ular boshqalardan o'zib ketadilar).

2. O'zlaridan ilgari o'tgan olimlarning ilmiy ishlarini boshqalarga sharhlab, tushuntirib beradilar, bilish yo'llarini osonlashtiradilar (bu vazifani ko'pincha o'qituvchilar uddalaydilar. Yu.A.)

3. Ba'zi kitoblarning nuqsonlarni topadilar, nuqsonlarini to'ldiradilar.

Xorazmiy olg'a surgan maskur tasnif barcha fan sohasida izlanishlar olib borayotgan hozirgi zamon ijodkorlari uchun ham tegishlidir. Uning o'zi esa fanning ko'pgina sohalarida birinchi guruhga mansubdir. Olimning mazkur asari uning nomini jahon fani zarvaraqlarida qoldirgan muhim asar hisoblanib, u nazariy va amaliy qisim qoidalar hayotiy muammolarini - turli xil xo'jalik turmush, savdo-sotiq, yuridik masalalarni yechishga tatbiq etdi.

Xorazmiyning bu asarida hech qanday formulalar va simvollar bo'lmay, balki tenglamalar va ularni echilishi so'z bilan bayon etilgan. Bunda noma'lum "shay" (narsa) uning kvadrati "mol" (boylik) deb atalgan. Noma'lum ba'zan ildiz (jazr) deb ham atalgan. Ikkinchi darajali tenglamalar va ularni yechish metodlari, ularni geometrik tasviri kvadrat tenglamalarga keltiradigan masalalar yechish bayon etiladi. Berilgan har qanday shakldagi tenglamani yechish uchun eng oldin bu tenglamani "jabr va muqobala" amallarini tadbiq etish bilan quyidagi tenglamalardan biri shakliga keltirib undan so'ng hosil bo'lgan sodda tenglamalar ma'lum qoidalar yordami bilan yechiladi.

Xorazmiyning boshqa bir qimmatbaho asari "Arifmetika" faqat matematika tarixida emas, balki umuman fan va madaniy tarixida ham juda katta

axamiyatga egadir. Bu kitob orqali o'nli pozision sanoq sistemasi yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga, Yevropaga tarqala boshlagan. Xorazmiyning bu asari asosida juda ko'p kitoblar yozildi va uning pozision sanoq sistemasini tadbqiq etishdan iborat progressiv ideyalari davom ettirildi. Xorazmiyning arifmetikasi matematika tarzida - sanoq sistemasi tarixida umuman, fan va madaniyat sohasida yangi davr ochdi. U Bag'dod shahrida bir necha yillar bo'lib, undagi abservatoriyada kuzatishlar olib bordi. IX asrning 20 yillarida u "Zij" (astrologik jadvallar)ni tuzib chiqdi. Bular arab tilidan lotin taliga tarjima qilinib ikki asrdan ortiq davr ichida turmush ehtiyojlari uchun foydalanildi. Bu sohada Xorazmiy O'rta Osiyolik mashhur astronom va matematiklardan Muxammad ibn Nosir, Farg'oniy, Axmad Marvoziy va boshqalar bilan ish olib bordi. Uning "Kitob surat al-arz" nomli jug'rofiyaga bag'ishlangan risolasi mazkur fan rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu asarning qo'lyozma nusxasi 1878 yilda Qoxira shahrida topildi. Unda 637 ta jug'rofik joylar, 209 ta tog'ning jugrofiy tafsiloti, daryolar, dengaz va okeanlar havzasi, ulardagi orollar shakllari va joylashish o'rni aniqlangan.

Shunday qilib al-Xorazmiy o'zining betakror original ijodi hamda pedagogik faoliyati bilan o'zidan keyingi olimlarning tarbiyalanib yetishida katta rol o'yadi. Uning qomusiy bilimidan jahondagi ko'plab xalqlarning olimlari shogird sifatida bahramand bo'lishdi. Uning ijodi O'rta Osiyo xalqlari ilmiy ma'naviy madaniyatning qadimdan yuksak darajada bo'lganligini isbotladi va yoshlarimiz uchun ilm sirlarini egallash yo'lida namuna bo'lib qoldi.

Abu Nasr al-Forobiyning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlari. Abu Nas al-Forobiy o'rta asr sharqining buyuk qomusiy olimi bo'lib, u 873 yildan hozirgi Qozog'iston teritoriyasidagi Farob shaharchasida tug'ildi, keyinchalik Toshkentda va Buxoroda yashab ta'lim oldi. X asr boshlarida ilmga chanqoq bo'lajak olim O'sha paytda madaniyat va ilm markazi bo'lgan xalifalik poytaxti Bag'dodga boradi. Bu yerda u turli xil fan sohalari bilan shug'ullanadi, ko'p tillarni o'rganadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 70 tilda gaplasha olgan. Forobiy bu yerda xristian olimlari Abu Bashar Marta ibn Yunusdan Yunon falsafasi va tilini, Yuxanna inb Xaylondan tabobat va mantiq ilmini o'rgandi. "Muallim as-

soniy" - ikkinchi muallim (Aristoteldan so'ng) nomini oldi, umrining so'ngi yillarini Damashq shahrida o'tkazdi. Forobiy fanning turli sohalariga bag'ishlangan 160 dan ortiq asarlar yozdi. Biroq uning ijodini belgilovchi narsa uning falsafiy qarashlari hamda pedagogik qarashlari ifodalangan asarlaridir.

Uning falsafiy qarashlari panteistik harakterga ega bo'lib, u Platonning materializmi rad qilishga qarshi chiqadi va tabiatni real va obyektiv mavjud ekanligini e'tirof etadi. Uningcha inson tabiatning eng yuksak ijodi, inson o'zining idroki tufayli atrof muhitni anglay oladi. Idrok yordamida sezish mumkin bo'lmaydigan ichki aloqalar mohiyatini tushunib sezsa bo'ladi, degan fikrlari bilan u izchil rasional tastiq pozisiyasida turadi.

U o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida har tomonlama rivojlangan inson va insoniy masalasini ko'ndalang qo'yadi. Xuddi ana shu g'oyalar Forobiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini belgilaydi. Shuning uchun ham Forobiyni haqli ravishda o'rta asr sharqining fani asoschilaridan biri deb aytish mumkin.

Forobiy falsafani nazariy va amaliy deb ikkiga ajratib o'z pedagogik qarashlarini amaliy falsafasida keng yoritgan. U fanlarga bilimlarni egallash va yig'ish vositasi sifatida qaraydi. Ularni egallashni esa ma'lumotlilikning me'zoni deb hisoblaydi. Haqiqatni aniqlash, fikrning qat'iyligini tarbiyalashda mantiq va grammatikaning rolini ko'rsatar ekan, u sezgi organlari va miya insonga tug'ilishdanoq berilgan. Qolgan narsalar bilim, har xil aqliy va axloqiy xislatlar, xarakter, ma'lumot boshqalar insoniy muloqotlar natijasida qo'lga kiritiladi, deb hisoblaydi. Shuning uchun xam insonning shakllanishida tarbiyaning ayniqsa ma'naviy va axloqiy tarbiyaning roliga katta baxo beradi. Forobiy inson xarakteridagi mardlik, botirlik, saxiylik, topqirlik, tug'ri so'zlik, adolatparvarlik kabi xususiyatlar faqat tarbiya natijasidagina qo'lga kiritiladi deb xisoblaydi. Unincha axloqiy sifatlar ikki xil yo'l bilan hosil qilinadi:

1. Mustaqil xarakat qilish orqali
2. Majbur qilish orqali.

Biroq qanday usul qo'llanilmasin pedagogning fikricha natija bir xil, ya'ni ideal jamiyat talabiga javob beruvchi shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim. Uningcha, bolani uyda, oilada, maktabda, o'qituvchi va jamoada rahbar boshchiligida tarbiyalash mumkin. Yaxshilar jamiyatda tarbiya kollektiv xarakterga ega bo'lib, kishilar yaxshi sifatlarni egallash uchun erkin harakat qilishlari, yagona maqsad yo'lida birlashishlari lozim. Bunday jamoa boshliqlari aqliy va jismoniy, ma'naviy jihatdan kamolotga erishgan kishilar bo'lishlari lozim. Bunday kishi adolatli, donishmand, olim bo'lishi kerak. U o'zini namuna vositasida jamiyat a'zolarini tarbiyalashi lozim.

Forobiyning asosiy pedagogik qarashlarining Fozil shahar aholisini maslagi "Donishmandlik asoslari", "Mantiqqa oid risola", "Galenga e'tiroz", "Fanlarning tasnifiga doir", "Baxt saodatga erishish haqida", "Fuqarolik siyosati haqida" kabi asarlarida bayon etilgan.

Olim o'zining "Fozil shahar aholisining maslagi" asarida inson tabiatdagi asosiy kuchlarni ya'ni qobiliyatni, sezish, istemol qilish, fikr yuritish, intilish kabilarga bo'lib bularning tabiiy ruhiy xarakterga ega ekanligini qayd etadi. Uningcha biror bir predmet to'g'risidagi bilim kishida fikr yuritash yoki tasavvur qilish va yoxud sezish orqali hosil qilinadi. Forobiy bu asarda ilim zaxirasining ko'pchilik tajribasidan iborat ekanligini alohida qayd etib, inson har bir soxada bir-biridan o'rganishi lozim busiz taraqqiyot bo'lmaydi, deb uqtiradi.

Forobiy "Donishmandlik asoslari" asarida ham o'z pedagogik qarashlarini rivojlantirib kishidagi sezgi organlarini uzviy aloqadorligini, bilish jarayonini murakkab bosqichlaridan ekanligini qayd etadi. Uning bu fikrlari didaktikada ko'rgazmalilik va oddiydan murakkabga qarab borish prinsillarini amal qilishga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Forobiy "Mantiqqa oid risola" asarida bilish jarayonining yuqoridagi asarlarida qayd etilgan bosqichlariga batafsilroq to'xtalib o'tgan. Bu asarda olim o'zining lanteistik qarashlarini mantiqan asoslab beradi. Uning fikricha jon tandan

oldin mavjud bo'la olmaydi: demak u materiyanı tan olada. Biroq unda ilohiy kuch o'zini zuhr etadi deb hisoblaydi.

Forobiy murakkab masalalarnı hal etishning kaliti mantiqdir deb hisoblaydi. Uning fikricha, grammatika fanining tilga hamda uning ifodalariga bo'lgan munosabati xuddi mantiqning tafakkur va tushunchalariga munosabatlari kabidir. Grammatika til xodisalarining mezonı bo'lganı kabi, mantiq xam tafakkur tushunchalariga doir xatolarini bartaraf etuvchi ilmiy asoslangan mezonidir.

“Baxt-saodatga erishish yo'llari haqida” asarida Forobbiy yaxshi fazilatlarning ta'lim va tarbiya berish orqali hosil qilish kishini qayd etadi. Uning fikricha ta'lim xalqqa yaxshi fazilatlarnı nazariy tarzda singdirishdir, tarbiya - bilimga asoslanadigan axloqiy fazilatlar tarbiyalanuvchiga singdirish san'atidir. Birinchi so'z vositasida, ikkinchisi odatlantirish, malaka xosil qildirish orqali olib boriladi. Aqliy yaxshi fazilatlarnı singdirish, ya'ni amaliy san'at, ikki usul orqali insonni tarbiyalaydi.

1- Ishontirish

2. Majbur qilish.

Pedagogning bu fikrlari, qarashlari hozirgi kunimizda xam o'z ahamiyatini yo'qotgan xam yo'q. Uning bo'lajak olim shaxsi haqidagi qarashlari ham diqqatga loyiqdir: bunday kishi nazariy bilimlarnı puxta bilishi, yaxshi fazilatlarnı osonlik bilan egallay olish, yomon xislatlarga, yovuzlikka, adolatsizlikka bo'ysunmaydigan kishi bo'lishi lozim. Bu hozirgi zamon olimining ham qiyofasini belgilashda mezon bo'ladigan fikrdir.

Forobiy yana davom etib, kishi faqat maqtoov yoki jazolash vositasida baxtga erisha olmasligini, bu har ikkalasidan baravar, o'rni kelganda foydalanilsagina kutilgan maqsadga erishish mumkinligini uqtiradi. Bu oxirgi holat 3 shartni o'z ichiga oladi. 1. Inson uchun kerak bo'ladigan umumiy harakatlarini: o'tirish, turish, yurish, ko'rish, eshitish va h.k. . 2. Jonning kechinmalarini: extiros, lazzatlanish, xursandlik, g'azab, tushkunlik, zerikish, qayg'u, rashk va h.k. 3. Sog'lom fikr bu oxirgi inson hayotiga yo doim, yoki ayrim vaqtlardagina mavjud bo'lishi mumkin.

Uning fikricha, hamma yaxshi va qabih xususiyatlar inson tomonidan tug'ilishidan so'ng orttiriladi. Forobiy biror bir harakatning tez-tez takrorlanishini odat deb aytadi. Shunga asoslanib, u yaxshi xislatga ham odatlantirish va odatlanish mumkin deb hisoblaydi. Uningcha har bir hodisada ham o'rtacha me'yor ma'qul. Masalan u jasurlik masalasida shunday deydi. Jasurlik yaxshi axloqiy sifat, u mo'tadil mardlik sifatida xavfli hollarni bartaraf etishda yuz beradi. O'ta ketgan jasurlik aqlsizlikni, kami esa ko'rkoqlikni tug'diradiki, bu o'ta yomon xislatdir. U saxiylik masalasida ham xuddi shu mezonni qo'llaydi. Hazil-mutoiba ham o'rtacha bo'lgandagina shavq-zavq bag'ishlaydi. Ishlash va dam olish xam xuddi shunday agar kishi o'zida bo'lmagan yaxshi xislatlarni o'ziga "yopishtirsa" xudbinga aylanadi. Agar har qanday fazilatni o'ziga yopishtiradigan bo'lsa, yolg'onchi bo'lib qoladi. Ikki kishining munosabatidagi mu'tadil aloqadir. Uning ortiqcha yoki kamligi do'stlikka putr yetkazadi.

Forobiy "Davdat arbobining xikmatlari" nomli asarida yaxshi fazilatlarni ikki turga bo'lib, birinchisiga axloqiy fazilatlarni, ikkinchisiga aqliy fazilatlarni kiritadi. Uningcha, ahloqiy fazilatlarga jonning harakat qiluvchi qismi mutadillik, botirlik, saxiylik, adolatparvarlik kabi xislatlar mansubdir. Aqliy fazilatlarga esa, jonning aqliy qismiga oid fazilatlar: donishmandlik, aql farosat. topqirlik, onglilik va hokazolar kiradi.

Bu fazilatlar takrorlash, mashq qilish natijasida odatga aylanib kishining ahloqiy fazilati sifatida mustahkamlanadi.

Pedagog olim "Aql so'zining axamiyati to'g'risida" nomli asarida fikr-muloxazalilik, aqillilik yaxshi xislatlarni ro'yobga chiqarish, rozilik va qabixlikdan chetlanishdir. Muloxazakor bo'lishning asosiy sharti esa e'tiqodli bo'lishdadir degan g'oya muxim tarbiyaviy xulosalarni bayon qilgan.

Shunday qilib u o'zining pedagogik qarashlarida mukammal, e'tiqodli inson haqidaga o'rta asr pedagogik qarashlarini umumlashtirdi va O'rta Osiyo xalqlari jumladan, O'zbekiston xalqlari pedadagogik qarashlarining asoschilaridan biri sifatida tarbiya sohasidaga mutadillik nazariyasini asoslab berdi. Shuning uchun ham uning ta'lim-tarbiya sohasidagi goyalari faqatgina Sharqdagina emas

balki Yevropa olimlarining pedagogik qarashlariga (R. Bekon David, Dinant, Spinoza) ham o'z barakali ta'sirini o'tkazadi. Bunday ta'sirni ayniqsa, Beruniy va Ibn Sino pedagogik qarashlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari. O'rta asr Sharqining jahonga mashhur yana bir qomusiy olimlaridan biri Abu Rayxon Beruniy bo'lib, uning olim sifatid shakllanishida o'sha davrning allomalari al-Xorazimiy, al-Forobiylarning ta'siri katta bo'ldi. Abu Ali ibn Sino, Firdavsiy va Daqiqiyalar u bilan bir davrda ijod qildilar. Uning qalamiga mansub bo'lgan asarlar soni 150 dan ortiq bo'lib, deyarli barcha fan sohalariga bag'ishlab yozilgan. Olimiing "O'tmish yodgorliklari", "Geodeziya", "Yulduzlar haqida ilm", "Hindiston", "Qonuni Mas'udiy", "Menerologiya", "Farmakognoziya" kabi asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan.

U pedagogikaga bag'ishlab maxsus asarlar yozmagan, biroq uning barcha asarlarida ta'lim-tarbiya, odob va axloq, masalalariga doir butun bir pedagogik qarashlar sistemasiga duch kelamiz.

Beruniyning o'zi tibbiyot tadqiqotchisi sifatida mashxur bo'lishiga qaramay, uning ijtimoiy hodisalar tadqiqotiga bag'ishlangan faoliyati o'zining keng ko'lamligi, chuqur va mantiqan izchilligi bo'lgan ko'p olimlarning xayratiga sazovor bo'lgan.

Beruniy ilmiy pedogogak merosi u yaratgan tabiatni o'rganish va bilish metodi katta o'rin egallaydi. Bu uning daniy va ilmiy fanlarga bo'lgan munosabatini ham belgilab bergan. Uningcha, fan javob berolmagan bilim sohalarini diniy bilimlardan izlash lozim. U sovet tuzumi davrida ba'zi tadqiqotchilar ta'kidlashganidek, hech qachon dinga qarshi bormagan, dinga e'tiqodli, chim musulmon bo'lgan.

Beruniy ilmiy metodnini xarakterli xususiyati sifatida uning obyektivli kuzatish, tajribalarga tayanish, og'zaki va yozma yodgorliklarni o'rganish, faktlarga tanqidiy yondashish, ularni allaqachon ma'lum bo'lgan haqiqat bilan chatishtirish,

mantiqan umumlashtirishga, aqliy umumlashtirishdan nazariya hosil qilish kabi ilmiy operatsiyalarni, usul va metodlarni ko'rsatib o'tada.

Beruniy melodning 1000 yilida "O'tmish yodgorliklari" asarini yozadi va unda qadimiy Sharq xalqlari, arablar, suriklilar, yahudiylar, eroniylar, sug'dlar, xorazmliklar va boshqa xalqlarning urf odatlarini ilmiy asosda tekshirib, bu bilan Sharq xalqlari etnografiyasiga asos soladi. Bu asar Sharq xalqlari etnografiyasi tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar asosida yozilgan. Uning mazkur asari A.Rasulov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, qisqacha mazmuni prof.A.Qayumovning Abu Rayxon Beruniy va Ibn Sinoga bag'ishlangan kitobida keltirilgan.

Asarda kecha va kunduzning almashinishi, quyosh va yer harakati, yil va oy haqida, eroniylar, sug'diylar, xorazmiylarning qarashlari to'grisida shaxsiy ma'lumotlar bayon qilingan. Sharq mamlakatlari, rimliklar, yahudiylar, arablar yil hisobi haqida xabar berilgan. Unda inson yashay boshlagan payt hisobiga doir jadval mavjud, unda turli xalqlar orasidagi inson paydo bo'lishiga doir tasavvurlar qaqida ham ma'lumotlar mavjud. Masalan eronliklar tarixining boshlanishini Kavmarsdan Aleksandr Makadonskiyning Doro ustidan g'alaba qozonganigacha, bu davrdan Sosoniylar shoxi Ardeshar Babak (226-241) davrigacha so'ngra, u davrdan Islomgacha bo'lgan jami uch davrga bo'ladilar.

Xorazimliklarning tarix hisobi xaqida esa Beruniy quyidagilarini yozadi: "Ular (Xorazmliklar - Yu.A.) Xorazmga odam joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari edi." U Qutayba tomonidan Xorazm xatini biladigan savodli dindagi kishilarning barchasi o'ldirilgani xaqida ham xabar qiladi.

Kitobda turli xalqlarning bayram marosimlari xaqida, jumladan, Navruz bayrami hakida ham ma'lumot berilgan.

Beruniy 1018-1025 yillar orasida "Geodeziya" (axoli yashaydigan joylar orasidagi masofalarni aniqlash uchun o'rinlarini belgilash) nomli asarini yozdi. Bu asrni ilmning foydaliligini qayd etar akan fanlarning qanday paydo bo'lganligi haqida ilmiy farazlarni ilgari suradi. Masalan, musiqa, ilmi mantiqning kelib

chiqishi asosida turli ilmlarning insoniy ehtiyoj natijasida kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Asarda tog', suv, quruqlikning umumiy tuzulishi, Xorazmning ilgari suv ostida bo'lgan shahrining joylashgan geografik kengligi, iqlimning yunoncha o'lchovi oy tutilishining sabablari qaqida ma'lumot beradi.

Beruniy o'zining "Xindiston" asarida hindlarning diniy e'tiqodlari, kitoblari haqida, she'r va grammatikasi, ilmiy kitoblari, astronomiya ilmi, o'lchov asboblari, yozuv tarixi, po'stlokda xat yozish, Samarqandda qogoz-ishlash sanoatining bunyod etilishi, raqamlar, hindlarning odatlari, diniy jug'rofiyasi, Hindistonga yondosh okean va quruqliklar hind yil hisobi orol va dengizlarning qisqacha nomlari, xind daryolari, yerning shar shaklida ekanligi ko'rinishidagi xind astranomlari fikrlari, Toshkent nomining kelib chiqishi haqida keng ma'lumot berib, xind jamiyati tuzilishiga doir qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, uning yozishicha hind jamoasi braxmanlar, ashtariylar, vaishya va shudralardan iborat. Ichkilik ichish shudralar uchun gunox hisoblanmaydi. Hindlardagi nikoh oilaviy marosimlar, merosxo'rlik masalalari ham kitobda yoritilgan. Nikoh bolalik chogidayoq ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. Erkak 4 tagacha xotin olishi mumkin. O'lik kuydiriladi. Astrologiya ilmining rivojlanganligi xaqida ham ma'lumotlar mavjud.

"Konuni Mas'udiy" asarida o'sha zamon astronomiyasi yutuqlarga tayangan xolda, olamning shar shakliga ega ekanligini, uning harakatda ekanligi, "quyi olam" ning tuproq, xavo, suv va olovdan iborat ekanligi, yer ana shulardan tarkib topganligi, markazga intiluvchan va markazdan qochuvchan qismlar, yerning yetti sayyoradan tashkil topishi, Quyosh olam markazi bo'lib, barcha sayyoralarning ahvol va harati uning harakatiga bog'liqligi, Yer, Merkuriy, Zuhra quyi sayyoralar, Quyoshga eng yaqin joylashgan sayyoralar Mars, eng uzog'i Saturn, ular o'rtasida esa Yupiter joylashganligi haqida ma'lumot beradi.

Kitobda astrolobdan foydalanib shaharlarning o'rnini aniqlashga bag'ishlangan katta jadval ham mavjud. Masalan, unda Samarqandning 48-20 C uzunlik va 40-30 C kenglikda joylashganligi, Buxoroning 87-30 C uzunlik va 35-20 C kenglikda joylashganligi qayd etilgan. Yana Samarqandning nomi haqida

gapirilib uning turkcha Quyosh shahri ma'nosini anglatishi izoxlanadi. Bu kitobning ahamiyati shundan iboratki, Beruniy o'zidan oldin o'tgan olimlarning astranomiya o'id fikrlarini umumlashtirib, yakka ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirgan.

Beruniy "Minerologiya" (Kitob-ul-javohir fi ma'rifatul-Javoxir) "Qimmatbaxo toshlarni tanlamoq uchun ma'lumotlar to'plami" nomli asarida qimmatbaxo toshlarni tanishdan boshqa yana falsafiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini bayon qilgan. Asarning boshida olim insonning fazilatlar har qanday boylikdan ulug' ekanligini qayd etib o'tgan. Uning fikricha, inson eng oliy janob fazilatlar egasidir. Yaqin dusti bor kishi chinakkam baxtiyordir. Ana shunday chin, haqiqiy do'st kishida faqat bitta bo'ladi. Bundan ortiq bo'lishi mumkin emas. Olim, boshqa do'stlarning ko'p yo oz bo'lishi odamning molu davlati, kishilarni o'ziga jalb eta olish qobiliyatiga bog'liq ekanligini kinoya bilan qayd qiladi.

Pedagogning fikricha, kishi hamma vaqt yaxshilik qilishga intilishi, agar bu qo'lidan kelmasa, yaxshi tilaklar is'hor eta bilishi lozim. Insoniy sifatlardan eng muhimlari tozalik va tartiblilikdir. Kishi go'zal kiyinishi, o'z ro'ziyatiga yoqadigan ish bilan shug'ullanishi lozim. Insonning chehrasi chiroyli, qaddi qomati kelishgan bo'lsa, unga qaraganda ko'ngil shodlanadi, ruhiyat yaxshilanadi. Uning nomi ham jarangdor bo'lishi kerak. Uning ma'lumot berishicha ilgarilari elchilikka chiroyli, kelishgan, nomi jarangli kishilar tanlangan. Agar ismi shunday bo'lmasa, boshqa nom berilgan.

Beruniy insonning tashqi qiyofasini o'zgartirib bo'lmaydi, biroq uning ichki qiyofasining ma'naviy dunyosini o'zgartirish mumkin deb hisoblaydi. Agar kishi o'z xirsidan, jaxlidan ustun tura olmasa, deb uqtiradi u, o'zida faqat yaxshi xislatlarni tarbiyalay oladigan bo'ladi.

Beruniy o'z pedagogik qarashlarida shan va g'urur, yaxshilik va yomolik, adolat va xonadon, go'zallik va xunuklik kabi axloqiy kategoriyalarni izoxlash bilan barobar, bunday axloqiy sifatlarni ta'lim davomida sindirilishini alohida uqtiradi. Uningcha bunday ta'lim davomiy, ko'rgazmali (isbotli), maqsadli aniq tizim asosida olib borilishi lozim. Yoshlarning tarbiyasida esa asosiy rolni mehnat

tarbiyasi o'ynaydi, uningcha bilim va mehnat bilan kishilarni qashshoqlik va nodonlikdan halos qila oladi. Beruniy o'z pedagogik qarashlarida turli millat vakillari, insonlar o'rtasidagi do'stlik g'oyasini ham qo'llab quvvatlaydi, bunday do'stlik "xayotning qimmatbaxo nematlari" deb baholaydi.

Abu Ali ibn Sino ta'lim -tarbiya to'g'risida. Qomusiy bilimlar sohibi ibn Sino (980-1037) ning asl ismi Husayn ibn Abdulloh ibn Sino bo'lib, u Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ila tug'ilib 17 yoshidayoq iste'dodli tabib sifatida nom qozongan. Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab, uning bu kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Ibn Sino bu kutubxonada Qadim Yunon tabiblaridan Gippokrat, kichik Osiyoda I asrda yashagan Pediniy Dioyekord, II asrda yashagan tabib Klavdiy Galen, II asrda yashagan Rimlik tabiblardan Arxigen, Troyan Rufus, Iskandariyalik Bavlus (VII asr) asarlarini, arabzabon olimlardan Abu Bakir Muhammad bin Zakariy Roziy (865-925), abbosiylar sulolasining saroy tabibi Ibs Musovayh (875 y. vafot etgan), Damashqlik Abul Hasan Iso bin Hakim ad-Damashqiy Masih (IX asr), Bag'dodlik Iso ibn Ali, Iso ibn Yahye (IX), Vizantiyalik tabib Stefan (VII), hind tabibi Charak Hindiy (I asr) Yahudiy tabiblaridan Basralik ibn Iosarjovayh (IX) asarlarini mutolaa qildi. Bu nomlarni to'liq keltirishdan muddao shuki, qomusiy bilimlar to jug'rofiy zaminda hech qachon tug'ilmagan, ular Osiyo va boshqa qit'alarda yashovchi millat va xalqlarning iste'dodli, farzandlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir, bir-biriga ustoz va shogirdlik an'anasi mahsulidir. Buning esa yoshlarga millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati hoyatda kattadir, chunki o'z ulug' vatandoshlarining faqat nomi bilan faxrlanish milliy mahdudlikni, uning hayoti va ijodini sinchiklab o'rganish esa uni chindan sevishga, uni tarbiyalashga ustozlari va ishini davom ettirgan shogirdlarini hurmat qilishga olib keladi.

Yuqorida nomi tilga olingan, Ibn Sinoning buyuk olim bo'lib yetishishiga ma'lum rol o'ynagan jahon olimlaridan tashqari u Aristotel, Abu Nasr Forobiy asarlarini o'qidi.

U 10 yoshligida muqaddas Qur'onni yod olgan, adabiyot, til, husnixat, notiqlik san'ati, shariyat ilimlarini puxta egallagan.

Maxmud Massoh rahbarligada hind hisobini, Ismoil az-Zahidiy qo'l ostida fikh ilmini, Abu Abdulloh Notimiyda matiq, geometriya, astronomiya, falsafa ilmlarini o'rgandi. Uning tibbiyot sohasidagi ustozlari ham ana shu olim edi.

Bizni davrimizgacha Ibn Sinoning arab va fors tillarida yozilgan asarlarining ro'yxati yetib kelgan. Undagi ma'lumotga ko'ra u 450 dan ziyod asar yozgan bo'lib, shulardan 240 tasininggina qo'lyozmasi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Uning eng yirik asarlari quyidagilardir: "Tib qonunlari", "Ashshifo (2 kitob), "Alhidoya" (Bag'ishlov), "Hay ibn Yaqzon" (Uyg'oqning o'g'li Tirik), Kitobul qulanj", "Yurak doriyalari",- "Donishnoma", "Ro'zg'or yuritish ilmi". Mazkur asarlarning barchasida ta'lim-tarbiyaga doir fikrlar bayon qilingan.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asri (1012-1023) 5 kitobdan iborat (Bu kitob 1954-1961 yillarda Toshkent shahrida rus va o'zbek tillarida nashr etilgan). Uning birinchi kitobi tibbiyotning umumiy masalalariga bag'ishlangan va unda olimning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari mavjud.

Ibn Sino bolani juda kichikligidan boshlab tarbiyalash lozimligini uqtiradi. Bolaga birinchidan yaxshilik, sof vijdonlik, do'stlik kabi insoniy fazilatlarni singdirmoq kerak. Ikkinchidan u ikki yoshga to'lganida uni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, tarbiyalash lozim. Buning uchun bolaga bajariladigan mashqlar unchalik oig'ir va turlicha bo'lmasligi kerak. Bolani musiqa, ertak vositasida tarbiyalash yaxshi natija beradi. Ibn Sino Sharq pedagogidir. Uning fikricha, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadigan odamlar hech qachon dardmonga muhtoj bo'lmaydilar. Bu o'rinda u aroqxo'rlikning jigar va ruhiyatini ishdan chiqarishini ham alohida ta'kidlab o'tadi. "Bolaga may berish olovga quruq o'tin qo'shish bilan baravar", - deydi u.

"Tib qonuni" kitobida 810 ta dorivor to'grisida ma'lumot berilgan bo'lib, bulardan 150 tasi hozirgi medisinada qo'llaniladi. Uchinchi kitobida kishi boshidan oyog'igacha uchraydigan barcha a'zolarining kasalliklari muolajasi bayon etilgan. To'rtinchisida isitmalar, burhoi, suyak sinishi, chiqishi, zaharlar, ziynat

xaqida ma'lumot beradi, davolash yo'llari ko'rsatiladi. Oxirgi beshinchi kitobida murakkab taryoqdan tashqari suyuq va quyuq sharbatlar, boda, ko'z, quloq, tish, tomoq, kasalliklari, gavdaning quyi qismida yuz beruvchi turli xil kasalliklar muolajasida ishlatiladigan dalillar haqida ma'lumot berilgan. Umuman, Ibn Sinoning mazkur asari ta'lim-tarbiya, tibbiyot uning dorishunoslik, davolash sohalari bo'yicha tengi yo'q manba xisoblanadi.

Ibn Sinoning "Ashshifo" asari xam 1012-1023 yillar mobaynida yozilgan bo'lib, unda olim yashagan davrda mavjud bo'lgan barcha bilim sohalari qamrab olingan.

Asarning birinchi bo'limida fizika, ikkinchi bo'limida matematika, uchunchi bo'limida ilohiyot, to'rtinchisida esa axloq va odob haqida so'z yuritilgan.

Uning "Ro'zg'or yuritish ilmi" asari ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan maxsus asardir. Jumladan, uning oila haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: oila boshlig'i, uningcha o'z farzandlari qaramog'lariga g'amxur bo'lmog'i, ularning yaxshi xulqli, ust boshlari but, qorinlari to'q bo'lishi uchun harakat qilmog'i, ularga tarbiya berishda xotini bilan ittifoq bo'lib ish ko'rmog'i lozim. Insonning yuksak xislatlaridan biri g'amxo'rlik va e'tiborlilik. O'ziga yaxshi insoniy xislatlarni shakllantiruvchi kishi uchun hech narsa qo'rqinchli emas, u olg'a qarab qadam qo'yishi, o'zini-o'zi tarbiyalagach, boshqalarning tarbiyasi bilan ham shug'ullanishi mumkin. Axloq aql tomonidan boshqarilishi kerak. Kishi o'zida yaxshi xislatlarni tarbiyalamoqchi bo'lsa, avvalo o'zidagi salbiy jihatlarning nimadan iborat ekanligini bilishi, ya'ni o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilishi lozim. Agar ayrimlari nazardan chetda qolsa, deydi Ibn Sino bu xuddi butunlay davolanmagan kasallikka o'xshaydi. Buyuk mutafakkir mazkur fikrlari bilan insonni qayta tarbiyalanishi, unga tarbiya berish kabi nihoyatda muhim ekanligi haqidagi nuqtai nazarni asoslab bergan.

Ibn Sinoning otaning bola tarbiyasidagi roli haqidagi mulohazalari ayniqsa diqqatga sazovordir. Ota o'z farzandiga eng birinchi yaxshi nom qo'yishi lozim,

keyin yaxshi enaga yollamig'i kerak, toki bu sog'lom ayol uni o'z suti bilan boqsin. U sutdan chiqqach, unga axloqiy tarbiya berishni boshlash lozim. Tarbiya maqsadini amalga oshirish jarayonida tarbiyachi ba'zan jazolashi, joy-joyi bilan taqdirlab turishi, vaqt-vaqti bilan maktabga qo'yishi, tanbeh berishi yana mukofatlab turishi kerak. Pedagogning bu fikrlari tarbiyadagi yagona talab prinsipiga asoslanadi.

Balaga maktabda ta'lim-tarbiya berish uning eti qotib, tili chiqqach va quloqlari tovushlarni yaxshi eshitadigan bo'lgach olib borilishi lozim. Buning uchun avvalo, pedagogning uqtirishicha, o'qituvchi va tarbiyachini tanlash lozim. U sof ko'ngil, halol, donishmand, axloqan va aqlan barkamol hamda ta'lim-tarbiya uslublaridan yaxshi xabardor, iroda malakalarini egallagan oqil kishi bo'lmog'i lozim. Shu bilan birgalikda jismoniy sog'lom, ozoda, muomilada shirin so'z bo'lishi lozim. Uning mazkur fikrlari o'qituvchi-tarbiyachining kasbiy xislatlari tasnifnomasi sifatida juda muhimdir.

Ibn Sinoning fikricha bolalarni jamoa-jamoa qilib o'qitilsa va tarbiyalansa ular bir-birlaridan yaxshi xulq fazilatlarni o'rganish uchun yaxshi sharoit yaratilgan bo'ladi. Bunday ta'lim bolalarga quyidagacha foyda keltiradi.

1. Ularga fanlarga nisbatan qiziqish uyg'onadi. O'z bilimlaridan faxrlanish boshqalarnikiga havas uyg'onadi. G'urur va xudravlik boshqalardan orqaga qolmaslikka, balki ularda uzib ketishga undaydi.

2. Bir-birlari bilan muomila qilishlari jarayonida nutqlari o'sadi, xotiralari mustahkamlanadi. Demak mustaqil ravishda bilim olishga ham yo'l ochiladi.

3. Jamoaviy ta'limning yana bir ijtimoiy foydasi shundan iboratki o'quvchilar o'zaro do'stlashadilar burch va vazifalari xaqida bahslashadilar, musobaqalashadilar. Bularning hammasi bahs-muhokama ob'yekti sifatida namunali xulq-atvor normalarini tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Ibn Sino maktab bolalarga nimani o'rgatishi kerak? degan savolga javob berib, bolani avval Qur'onga o'rgatish lozim, keyin grammatika qoidalariga, kasb yoki san'atga o'rgatish kerak, chunki u hayotda keyinchalik o'zini o'z oilasini mustaqil ravishda boqa olsin deb javob beradi. U kasbga yo'naltirish sohasida ham o'z fikrini bildirgan. Uningcha, o'qituvchi o'quvchini o'qitish, tarbiyalashga kirishishidan

oldin uning qiziqishi bilim darajasini o'rganish, keyin unga mos kasb va san'at turini belgilashi lozim. U o'z kasbini mukammal o'zlashtirgach esa, uning diqqatini o'zini-o'zi taminlay olishi uchun o'z kasbidan qanday foydalanishga qaratmoq kerak. Buning 2 xil foydasi mavjud: .

1. U o'z kasbidan manfaatdor bo'lgach, bundan nihoyatda lazzatlanadi va o'z kasbini takomillashtirishga harakat qiladi.

2. U moddiy manfaatga ko'nika boshlaydi. O'z otasining davlatiga befarq qaraydigan bolalargina bilim va kasblarni yaxshi o'zlashtiradilar.

Buyuk mutafaakirlarning mazkur fikrlari hozirgi kunimizda ham, respublikamiz bozor iqtisodiyotiga qadam qo'yayotgan, yoshlarning mustaqil kasb tanlashi, o'z mehnatlaridan manfaatdorlik xis-tuyg'ularini tarbiyalash vositasida jamiyatimizning turli sohalari uchun ishbilarmon kadrlarni yetishtirish vazifasini amalga eshirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiluvchi fikrdir.

Shunday qilib, Ibn Sino o'z buyuk zamondoshi Abu Rayxon Beruniy bilan hamnafas bo'lgan, fanning barcha sohalarida qalam tebratgan, ta'lim va tarbiya sohasida ham takrorlanmas, original fikrlar bayon etgan pedagog hamdir. Uning bizgacha etib kelgan asarlarini sinchiklab o'rganish va xalq, orasida targ'ib qilish xalqimizning o'z milliy-madaniy qadriyatlarini anglab olishiga, madaniyati va bilim darajasi o'sishiga yordam beradi. Bu vazifaini amalga oshirish esa bo'lajak o'qituvchilar sizlarning burchingizdir.

1.2. XI-XV asrlarda O'rta Osiyoda maktab va madrasalarda o'quv mashg'ulotlari

IX -XV asrlardagi maktab va maorif tizimi haqida bizgacha juda oz ma'lumot yetib kelgan. Barcha bor manbalar, asosan XVII – XX asrlardagi maktablar ahvolini xarakterlaydi holos. Bu davrda mavjud bo'lgan ta'lim – tarbiyani ikki asosiy turga ajratish mumkin ular:

1. Diniy ta'lim-tarbiya
2. Dunyoviy ta'lim-tarbiya

Diniy ta'lim islom dini asoslarini – Qur'on, Sunna, shariat qoidalarini o'rgatishni nazarda tutsa, dunyoviy ta'lim ijobiy ilmlarning o'rganishni maqsad qilib olgan edi.

Ibn Xaldun XIV – XV asr Islom mamlakatlarining turli yerlarida amalga oshirilgan ta'lim – tarbiya muassasalari ustida to'xtalib, islom dunyosining barcha mamlakatlarida balalarni “o'qitishning asosini Qur'onni o'rganish tashkil etadi” deb yozadi.

Bu davrda oily tabaqa feodallari uchun mo'ljallangan dunyoviy ta'lim – tarbiya ham mavjud bo'lib bunga doir masalalar “Qobusnoma” asarida anchagina keng yoritilgan. “Qobusnoma”da dunyoviy bilimlarni qanday iqlib o'rganish, nimalarni bilish zarurligi haqida hikoya qalinadi.

Ma'lumki musulmon ta'lim sistemasi ikki asosiy bosqichdan iborat edi: ibtidoiy maktablar va o'rta madrasalar. Biroq bu bilim o'choqlaridan tashqari maxsus boshlang'ich ta'lim maktablari: qorixona va doliixonalar ham mavjud edi.

Musulmon ruxoniylari xalqni o'z ta'sirlarida saqlash madsadida maktablarning butun tashkiliy ishlarini o'z qo'liga oldi. Maktablar aholi o'rtasida Islom dini asoslarini o'rgatuvchi va targ'ib etuvchi asosiy omil edi.

Butun O'rta Osiyo territoriyasida bo'lganidek, Mavoraunnahr shaxrida ham maktablar xususiy edi. “Maktab qurish hamma vaqt xudojo'ylik ishi sanalardi, chunki musulmon maktabida o'qitishdan bo'lgan asosiy maqsad bolani Qur'on o'qishga, hamda lozim duolarni o'rgatishdan iborat edi”.

Asrlar davomida maktablarda bir xildagi o'qitish va tarbiya metodlari qo'llanilardi. O'qish kitoblari titilib ketgan paytda ruhoniylar ularni qayta ko'chirar yoki ularga sharxlar bitardilar. Xuddi Ulug'bek davrida bo'lgani singari, oktabr revolyutsiyasigacha bo'lgan davrda ham maktablardagi o'qitish shakllari va metodlarida unchalik o'zgarish yuz bermadi.

Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, eski maktabda iqtidorli talabalargina o'qishni xatm qila olar, sovet davridagi kabi plan bajarish uning uchun yot edi. Bilimlar mustahkam egallanar, domlalar qog'ozga qaramasdan yod olgan bilimlarini o'z shogirdlariga berishar edi. O'sha davrda mavjud bo'lgan maktablarning aniq sonini aytish qiyin, chunki maktablar yerli amaldorlarning ruhsati bilan istalgan paytda ochila berardi. Maktabdagi o'quvchilar soni ham yilning serhosil yoki qurg'oqchil kelishiga bog'liq edi. Xosil yaxshi bo'lgan yillari o'quvchilar soni ko'payar, kamhosil yillari esa kamayardi. Dehqonlar o'z bolalarining o'qishu uchun pul to'lay olmas va ularni maktabdan chiqarib olardilar.

Odatda maktablar uchun alohida maxsus binolar ajratilmasdi. Ular ko'pincha qorong'u, zah masjid binolarida, sinf mashg'ulotlari uchun sira ham moslashtirilmagan xonalarda elementar maktab jihozlaridan mahrum binolarda joylashgan bo'lardi.

Maktablarning xarajati masjidlarning moddiy daromati hamda otalarning sadaqalari hisobidan bo'lardi. Domlarning oylik ish haqlari barqaror bo'lmay, o'quvchilardan olinadigan aqcha xisobidan bo'lardi.

Aksariyat o'quvchilar faqat maktabnigina hatm etgan bo'lib, ularning juda ozligi madrasa ma'lumotiga ega edilar. Bularning ko'pchiligi ruhoniylar: imom namoz o'quvchi va muezzin nomozga chqiruvchilar bo'lib islom asoslarini yaxshi o'zlashtirmagan kishilar edi.

Bolalarni o'qitish uchun haq har xil tarzda olinardi. Masalan, bir qismdan ikkinchisiga o'tishda katta mavzudan ikkinchisiga o'tishda, yoki bir kitobni tugatib ikkinchisiga o'tish paytida ota – onalar tomonidan sovg'a salom, dasturxonlar keltirilardi. Uning uchida turli xil meva chevalardan tashqari qog'ozga o'ralgan tanga pul, ba'zan do'ppi yoki boshqa sovg'a bo'lardi. Bundan tashqari talabalar

kuz faslida “naypuli”, “angishtpuli” kabi yoqilg’I uchun mo’ljallanadigan to’lov pullarini to’lashardi.

Maktabdorlar shogirdlarni farzandlarini o’z tomoqchilarida ishlatishardi: xovli supurtirar, kir yuvdirar, bola boqtirar, uzum ochirar, yer xaydatar, tomoqqa sug’ortirar va tom suvatar edilar.

Har bir domla bolalarni o’z bilganicha o’qitardi. Ba’zilari o’z o’qitish metodlari sirini boshqalardan yashirar, faqatgina o’z oilalari azolarigagina bu san’at sirini ochardilar. Shuning uchun ham o’qitish programmasi bir shaharning ikki qismida har xil bir – biridan farq qilardi.

Agar maktabdor o’z kasbini sevgan, bolalarni savodxon qilish uchun astoydil intilgan bo’lsa, ta’limning mashaqqatli jarayoni uning maktabida har qanday ma’lum samaralarni berardi. Aksariyat hollarda esa, o’quvchilar maktabga bekordan – bekorga qatnab o’z vaqtlarini behida o’tkazardilar.

Taniqli tojik yozuvchisi S.Ayniy qayd etishicha u “xatto maktabni bitirib chiqqanidan so’ng ham faqatgina maktabda o’qigan kitoblarni o’qiy olgan xolos²”. Shunday ekan bunday maktabni bitirib chiqqan talabalarning ko’pchiligi savodsiz xolicha qolishiga xayron qolmasa ham bo’ladi.

Maktabga qabul qilinadigan bolalarning yoshi masalasi ham aniq belgilanmagandi. Bir xil ota – onalar o’z bolalarini 5 yoshdan o’qishga bersalar, ba’zilari 6 – 8 yoshdan berishardi. O’qitish muddatlari va qabul vaqti ham aniq belgilab qo’yilmagan edi. Bolani maktabga istagan vaqtda olib boorish mumkin edi. Shaharlarda o’g’il bolalar 15 – 17 yoshgacha, qishloq joylarda esa 13 -15 yoshgacha o’qitilardi.

Shahr va ko’pgina qishloq maktablarida ta’lim yil bo’yi davom ettirilardi. Ba’zi maktablar yilning issiq paytlarida ota-onalar bilan kelishilgan holda 2-3 oy o’qishni to’xtatishardi. Qishloqlarda ayrim maktablar baho kirishi bilan yopilar, kech kuzga qadar ham bu maktablarda o’qish bo’lmasdi, chunki o’quvchilar ota-onalariga yordam berish uchun dalada bo’lardilar. O’quv kunining boshlanish va

² S.Ayni Esdaliklar. I – kitob, 331 bet

tugallanish muddati ham aniq belgilab qo'yilmagan edi, qadimiy qoidaga binoan bolalar ertalabdan to qora kechgacha o'qishar edi.

Mavjud an'analarga muvofiq har bir talaba maktabda kitobni domla tomonidan belgilanadigan ketma-ketlikda o'qirdi. O'quv rejalari va dars jadvali yo'q edi. O'quvchilar sinflarga ajratilmas edi. O'quvchilar o'rganilayotgan predmetning xarakteriga qarab guruhlanar esi: masalan: "taxtaxonlar" domla tomonidan taxtachaga yozilgan alfabitni o'rganuvchilar, "abjadxonlar" "Abjad"ni o'rganuvchilar, "xaftiyakxonlar" "Xaftiyak"ni o'rganuvchilar, "qur'onxonlar" "Qur'on"ni o'qauvchilar va h.k. o'quvchilar sinfdan – sinfga ko'cjirilmas, balki etap asosida o'qitilardi. Talabalar hozirgidek bilimlariga baho olmas, sinf jurnali ham yuritilmas edi. Agar o'quvchi yaxshi javob bersa, o'qituvchi tomonidan taqdirlanardi.

Mashg'ulot odatda tekstni o'qish bilan boshlanar, keyin har bir o'quvchi individual topshiriq olardi. Ba'zi maktabdorlar avval peshqadam talabalarni o'qishga majbur etar, keyin esa o'rtacha o'qiydiganlar va oxirida esa eng kichik va yomon o'qiydigan o'quvchilarga diqqat qilishardi. Boshqalari esa darsni so'rashni orta guruhdan yoki shunchalik chetdan boshlashardi.

Maktabda o'qish ertadan to kechgacha davom etar, tushdan so'ng faqatgina eng kichik bolalargina uyga javob berilardi. Tanaffus donlaning xoxishi bilan berilar, bolalar juda kam dam olar, bu vaqt faqat ovqatlanish uchun etardi xolos. Uyi yaqinlar uylariga ovqatlanib kelish uchun javob berilar, qolganlar maktabda o'z uylaridan olib kelgan yeguliklarini yerdilar.

O'quvchilar guruhlarida har xil yosh va tayyorgarlikdagi talabalar o'zlariga topshirilgan vazifani zo'r berib qichqirib takrorlashi natijasida darsxona shovqin-suronga to'lardi. Bunday jonga teguvchi, tushunmasdan yodlash, qiroatxonlik ulardagi qiziqishni so'ndirardi, qobiliyatlarini o'tmaslashtirib, xavfsalasiz qilib qo'yardi.

Maktablarda davomat past bo'lar, kunida bir necha talaba dars qoldirar, darsdan qochganlar ham bo'lardi. Bunday paytlarda qochoq o'quvchilar "chalpak" usulida, ya'ni zambarlarda yotqizib zo'rlik bilan maktabga olib kelinar, domla

qochoqlarni turli xilda jazolar edi. Aybdorlar xaqoratlanib raxmsizlarcha kaltaklanardi. Tarbiyaning bunday usulini oqlash uchun odatda quyidagi aforizm esga olinardi: “tayoq zarbidan xatto ayiq ham mulla bo’ladi”. Domlalar yana zo’r berib, u dunyoda do’zah o’tidan faqat gavdaning tayoq yegan joyigina omon qoladi, deb ishontirishga urinardilar.

O’qash ta’limi xarf qo’shish metodida olib borilar, bunda tovush emas, balki xarf nomi asos bo’lib xizmat qilardi. So’zlarning tovush tarkibi taxlil qilinmas, shuning uchun tovushlarning bir-biriga qo’shilishi mavhumligicha tushunilmasdan qolardi. O’quvchilar har bir xarf ma’lum bir tovushni anglatishini xayollariga ham keltirishmasdi.

O’qishga o’rgatishning bunday mexanik xarakteri, bir xil matnni ko’p marta takrorlashga majbur etar, o’quvchi mazmuniga tushunmasa ham domla o’qiganini takrorlagani takrorlagan edi. Bunday ta’lim ko’pga cho’zilar, “Taborak” surasidan boshlab, endi xarf qo’shish metodi o’z o’rnini butun-butun so’zlarni o’qishga bo’shatardi. Bu suralar Ulug’bek davrida ham ana shunday o’qilardi.

Birinchi o’qish kitobi sifatida Qur’onning birmuncha qisqartirilgan qismi “Haftiyak” qo’llanardi. Bu kitob bilan talabalar 1- 2 yil mashg’ul bo’lardilar, uni o’qib tushunish shunday qiyin ediki, bechora talabalar to o’qib tugatguncha muqaddas “Haftiyak”ning bir necha nusxasini qo’ldan o’tkazardilar.

Shundan so’ng “Qur’on” o’rgatilardi. Qur’ondan song “Chor kitob” to’rtta kitobdan iborat asarlar to’plami o’rganilardi. Bu kitob fors, tojik tilida yozilgan bo’lib, uning 3 qismi she’riy, 1 qismi nasrda yozilgan edi. “Chor kitob” o’rganilgach o’quvchilar Sa’diy Sheroziyning (1184-1291) “Guliston” va “Bo’ston”ini va Farididin Attorning (1084-1187) “Mantiqut tayr” asarini o’rganishga tutinardilar.

Maktabda arifmetik va boshqa maxsus predmetlar odatda o’rgatilmas, ayrim maktablardagina ba’zi layoqatli talabalarga arifmetikaning eng elementar xisoblari ko’paytirish, ayirish, qoshuv, bo’luv o’rgatilardi.

Ba’zi maktablarda o’zuvchilarga xusnixat o’tilardi. Mashq qilish uchun xusnixat namunasi sifatida “Mufradot” va yoki “Nusxai mufradot” qo’llanilardi.

Bu kitob turli xil variantlarda chiroyli yozuv xarflari toplamidan iborat edi. Bundan tashqari unda xusnixatning kishi hayotida o'ynaydigan ro'li haqida she'rlar ham keltirilgan edi.

Xatga o'rgatish “kitobat qilish” ya'ni kitoblarni ko'chirish bilan tugallanardi. Bu shunday mashaqqatli qiyin ish bo'lganidan juda kamdan kam kishi bu san'atni egallay bilardi. Maktablarda qizlar o'qitilmas, ularning juda ozchiligi davlatmand oilalarning farzandlari uyda muallima bibixalfalar yoki savodli ota onalar qo'lida o'qishardi. Bu bibixalfalar ko'pincha imom yoki mullaning xotini bo'lardi. Bibixalfa ta'limni eng zarur xisoblangan hajman ixcham arab tilidagi duolarni o'rgatishdan boshlanardi. Mazmuni noma'lum o'nga yaqin duolarni yod oldirgach, xarf o'rgatishga o'tardi. Qamish qalamlar yordamida taxtachaga yozilgan arab xarflarini bolalar xotirlab qolishlari va nomini yod olishlari lozim edi. Birinchi xarf o'rganilgach, ikkinchi va uchunchi xarfni o'rganishga o'tardilar³. Ta'limning keyingi bosqichlarida bibixalfa “Xaftiyak”dan ma'lum bir gapni o'qir qizlar esa tovush va so'z talaffuzini uning orqasidan takrorlab borishardi. Undan so'ng “Kalomullo” o'tilardi. “Xaftiyak” singari, uni ham birdaniga o'qishardi biroq “Xaftiyak” Qur'onga qaraganda tezroq o'qilardi. Uchinchi, to'rtinchi yilga kelib, qizlar tojik tilida yozilgan “Chor kitob”ni o'rganardilar. Ular bu kitobning uvadasi chiqib ketguncha rosa yodlagach, uning diniy mazmunini o'rganishga kirishar, bu ta'lim ularning aql farosatlarini o'tmaslashtirardi xalos. Talimning to'rtinchi va beshinchi yiliga kelib, qizlar diniy marosimlarda amaliy ravishda ishtirok etishga o'rgatilardi. Qizlarga “Qur'on” o'rgatilmasdi. Ularni yozishni o'rganish man etilgan edi. Qizlarning ham ota-onalari bibixalfaga o'qish uchun haqni sovg'a salom va pul tarzida to'lashardi⁴. Bibixalfada o'qigan qizlar diniy marosimlarni o'tkazish: ro'za tutish, qurbonlik, ko'mish marosimlarida qatnashish va namoz o'qish kabi zaruriy ijtimoiy marosimlarni o'rganishardi. O'rta asr musulmon maktablaridagi ta'lim XIX asrga qadar ana shunday tartibda davom etib kelardi. Ta'lim jarayonida bu davrda yo dolish, kitoblardan kam tushunarli bo'lgan ba'zan

³ Sabitov N. Maktabi i Medrese u kazaxov. Alma Ata, 1950 21 c

⁴ Karang: Sabitov N. Mektebi I medrese u kazaxov. Alma Ata 1950 21 c

mazmunini umuman tushunmaslikdan tekslarni ko'chirish bilan izoxlanardi. Ta'limning barcha qiyinchiliklari o'quvchilarning gardaniga tushardi. O'qish og'irligidan ko'pchilik o'quvchilar elementar savodga ega bo'la olmay maktabni tashlab ketishardi. Xalq orasida tarqalgan "O'qish – igna bilan quduq qazishdir" degan maqol ana shuning uchun paydo bo'lgan edi. Juda ozchilik o'rta asr maktablarida yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan professional o'qituvchilar dars berar, bu maktabda o'quvchilarning ma'lum qismigina o'qish, yozish, arifmetika qoidolari, eski adabiyotning ba'zi namunalari, geografiyaga doir umumiy tushunchalarga ega bo'lish naib etardi. Ilmiy bilimlar uzoq mashaqqatli ta'lim natijasidagina egallanardi.

Bir qator "Durrul Aji", "Xidoyai Sharif", "Arabul - Mutallimin" kabi diniy – axloqiy kitoblarda o'quvchilar amal qilishi mo'ljallangan qoidalar keltirilardi. Misol tariqasida ulardan ba'zilarini quyida keltiramiz: "Kimki ilmni, olimlar va o'z domlasini xurmat qilmasa, u o'zi o'rgangan bilimlardan xech qanday bahramand bo'lolmaydi", "Xushmuomila, tarbiyali o'quvchi xech qachon o'qituvchisidan oldinda yurmasligi kerak, uning hzurida ko'p gapirmasligi lozim", "O'quvchi darsga toza, ozoda, belgilangan vaqtda xozir bo'lishi lozim. Darsga kelar ekan, u domasi o'tirgan xona eshigini taqqillatmasligi, balki uning chiqish eshik orqasida chordona qurib o'tirgan xolda yoki tik turib kutishi lozim". O'qituvchi shaxsiga bo'lgan bunday talablar mullavachchaning ilm – fanga, o'zi yashagan jamiyat ziyolilariga, o'zidan kattalarga bo'lgan xurmat-izzatni tarbiyalashni nazarda tutadi. Bu qoidalarda amal qilgan talabalar katta yutuqlarga o'z chidam va irodalari bilan erishardilar. Albatta ko'pchilik kambag'aol ota-onalar o'qishga pul to'lay olmaganlari uchun o'z farzandlarini undan chiqarib olishardi. Bundan tashqari kambag'al dehqon bolalari yo o'z uyida yoki boy dalasida ishlashga, ota-onasiga yordam berishga majbur edilar.

Shunday qilib ijtimoiy tanlash yuz berar, buning natijasida maktabni bitirgan savdogarvachcha, boyvachcha va ruxoniylarning o'g'illarigina madrasada ta'limni davom ettira olishardi.

Shu kunimizga qadar eski maktab ta'limi hayotiy ehtyojlaridan g'oyatda uzoq, sxolostik ta'lim edi, dehan aqidalar mavjud edi. Alifbening bir-ikki yil davomida mashaqqatli yodlanishi, chidam va xafsalasi bilan uch-to'rt yil muqaddas Qur'onni yod olish, uni sharxlay bilish o'quvchilarda insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otishi to'g'risida esa lom-lim deyilmasdi. Bu maktab va unda ta'lim beruvchi domlarning ustun tomonlari ham mavjud edi. Bular bizningcha, quyidagilar:

I. Maktab va jamiyatning bir qismi sifatida mavjud edi, talabalar va domlalar xalq marosimlarida faol ishtirok etishar, o'tmishga ota-bobolar, otanonalar xotirasida nihoyatda e'zozlanardi.

II. maktab joylarda asosiy ma'rifat o'chog'I xisoblanar, domlalar axolining xar bir marosimida ishtirok etar, ularga islom mohiyatini tushuntirib berar, urushganlarni yarashtirar, yer suv va boshqa janjallarni qozixonaga borib yetmasidanoq hal qilishda bosh qo'shishar edi. Eski maktabning xalq bilan yaqinligi hozirgi zamon maktablarida bo'lanida edi, nur ustiga a'lo nur bo'lgan bo'lardi.

Qorixona va daloilxonalar. Bizgacha yetib kelgan arhiv hujjatlari va adabiyotlarda bunday o'quv muassasalari haqida juda oz ma'lumot yetib kelgan. Shunga qaramay, qo'limizdagi ma'lumotlar umumiy tarzda bo'lsada, bu masalalarning ichki hayoti va qiyofasini tiklash uchun yetarlidir.

Qorixona o'ziga xos o'quv muasasasi bo'lib, bu yerda o'quvchilar o'z domlalaridan asosan Qur'oni tilovat qilishni o'rganadilar. Unda ko'pincha ko'rlardan Qur'on tashviqotchilari tayyorlanar, ular qishloqma-qishloq yurib muqaddas oyatlarni shirali ovoz va qiroat bilan aholi o'rtasida yoyishardi. Qorilar faqatgina ko'r qiroatxonlar bo'lmay, balki kuchli shirali ovozga ega bo'lgan, Qur'on oyatlarini yod olgan kishilar ham shu nom bilan atalardi.

“Qorixona” so'zi “qori” ya'ni Qur'onni yoddan o'quvchi kishi hamda “xona” so'zidan oligan bo'lib, Qur'on o'rganiladigan uy ma'nosini anglatadi.

Qorixonaga maktabni tamomlaganlar, Qur'onni og'zaki yod olgan ko'rlar qabul qilinar edi. Ba'zi kamdavlat oilalarning farzandlari ham madrasaga kirish

maqsadida qorixonalarda o'qishardi. Qorixona bir vaqtning o'zida "doimiy o'quvchilar" uchun boshpana vazifasini ham bajarardi. Qur'ondan biror bir parchani diniy qo'shiq va afsonani yod o'qiy oladigan ko'zi so'qir kishilarni ham qori deb atardilar.

Samarqand, Buxoro va Andijon qorixonalar o'z arxitekturasini jihatidan madrasalarning kichraytirilgan nusxasini eslatardi. Bu yerda ham huddi madrasa bo'lganidek hujra, darsxona, xonakox mavjud bo'lib, ular qoshida masjidlar ham bo'lardi. Bu binolar madrasa binolaridan hujralarining ozligi, sifatsiz qurilish materiallaridan bunyod etilganligi bilangina farq qilardi.

Samarqand, Buxoro va Andijon shaharlaridagi qorixonalar 23 hujraga ega bo'lib, qishloqlarda qurilgan qorixonalarda hujralar soni nisbatan oz edi. Masalan: Shayx Mansur Motrud qorixonasida hammasi bo'lib 4 tagina hujra mavjud edi. Arxiv hujjatlari hamda qadimgi qo'lyozmalarning tasdiqlashicha Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlaridagi va Movoraunnaxrdagi deyarli barcha qorixonalar o'z vaqf yerlariga ega bo'lib bundan keladigan daromad shu madrasalarning xo'jalik ishlariga talabalar va domlalar maoshiga sarf qilinar edi.

Qorixonalar aksariyat xollarda vaqf yerlari mavjud bo'lgan qabristonlar qoshida, ba'zan esa masjid va madrasalar qaramog'ida bo'ladi. Qorixona qaramog'idagi qabristonga kelganlarda Qur'ondan suralar o'qib berar edi. Shuning uchun qorixonalarni xalq "go'rxona" deb ham atardi. 1337 yilda Samarqandda hammasi bo'lib 60 ta qorixona mavjud edi.

Qorixona yoshidan qat'iy nazar yilning islatgan vaqtida o'quvchi qabul qilaverardi. Odatda Qur'ondan suralarni uzundan-uzoq o'qiy oladigan shaxslar qabul qilinar, ko'rlar esa maktabni bitirmagan bo'lsalarda qabul qilinib darhol Qur'onni yodlashga tutunar edilar. Albatta arab tilida yozilgan Qur'onni ko'rlarga o'rgatish juda qiyin edi, biroq shariat qonuniga ko'ra ko'rlar birinchi navbatda qorixonaga qabul qilinishi lozim edi. Qorixona o'quvchilarining aksariyati keyinchalik ruhoniylar xizmatini ado etishar edi.

Qorixonalarda qo'llaniladigan ta'lim metodlarining ahvoli maktablardagidan ham nochor bo'lib unda asosan mexanik yodlash hukmron edi.

Daloilxonalar – kam tarqalgan, onda-sonda uchraydigan o'quv muassasasi. Movaraunnaxrda bunday maktabkar oz miqdorda bo'lsada mavjud edi. Ular Samarqand, Buxoro va Andijon shaharlarida mavjud bo'lib o'z vaqf yerlari va daromad manvalariga ega edi.

Daloilxonalarda o'quvchilar asosan “Daloil-Hayrot” kitobini o'rganish bilan shig'ulanar edi. “Daloil-Hayrot” Muhammad payg'ambarning ibratli so'zlari, hadislardan tashkil topgan bo'lib, hadislariga bag'ishlangan o'ziga xos qoidalar to'plamidan ivorat edi.

Kitobdagi duolar matni ular o'qilishi lozim bo'lgan vaqtda mos holda tartiblashtirilgan edi. Eng is'tedodli o'quvchilar bu kitobni 7 haftada, oz qobiliyatga ega bo'lganlar esa yil davomida yod olardilar.

Daloilxonalarni bitiruvchi kishilar islomning xalq orasidagi o'ziga xos targ'ibotchilari edilar, ular bozorlar, ko'cha-kuyda kuylar, to'y-tomosholarda oloxning rasuli Muhammad haqidagi qasida va afsonalarni qiroat bilan o'qir Islom asoslarini xalq orasiga yoyish bilan shug'ullanardilar.

Madrasa. “Madrasa” so'zining o'zagi “dars” bo'lib, madrasa dars beradigan joy, “darsxona” ma'nosini anglatadi. shu o'zakdanoq o'qituvchi – mudarris ya'ni, “dars beruvchi” so'zi yasaladi. Xalq orasida madrasa o'qituvchilarni “domulla” deb atash rasm bo'lgan, bosh mudarrisni esa “xazrat domlla” o'quvchilarni “mullabachcha” deb atashgan.

O'rta Osiyoda madrasalar XIII – XVI asrlar mobaynida ko'plab paydo bo'ldi bu ayniqsa Buyuk Temur boshchiligida O'rta Osiyo xalqlarining mug'illar asoratidan ozod qilinishi paytiga to'g'ri keldi. Temur davlatining adolatli ish yuritishi ham uning islom aqidalariga og'ishmay amal qilishida edi. Umuman Temuriylar bu davrda maktab va madrasalarning asosiy homiylari va quruvchilari edi. Bu davrda o'z mablag'I hisobidan maktab va madrasa qurib, savob ish qilishga bel bog'lagan juda ko'plab ma'rifatparvar kishilar yetishib chiqishdi. Ularning ko'pchiligi amirlar, ziyolilar edi.

Ko'pincha madrasa quruvchilar va uning moddiy jihatdan qo'llab turuvchilar badavlat shaxslar bo'lib ular bir tomondan “savob” bo'lishiga

ishinsalar, ikkinchidan bu ish ularga beqiyos obru berar, bu obru esa ularning cho'ntaklari yanada qappayishi uchun zarur edi. Madrasa ta'limi ko'pincha 15-20 yilga cho'zilar bu esa unda ta'lim oluvchilar oz' – o'zini moddiy jihatdan tamin etgan bo'lishini talab qilardi. Ko'p mullavachchalar o'qish bilan birga kishilar eshigida xizmat qilishga majbur edi. Kamvag'al mullabchchalar boy mullabchchalarning xizmatini qilar, yozda qishloqlarga borib mardikorlik qilar, masjidlarda diniy xizmatda bo'lardilar.

Madrasalarga 17 yoshda bo'lgan yosh yigitlar qabul qilinardi. Agar qabul qilinuvchi kelgindi bo'lsa, alohida xollarda mudarris uning o'qiy olishini tekshirib ko'rardi.

Shogirdlar orasida madrasada 25 yillab o'qiguvchilar ham topilardi. Ba'zi "fidoiy" lar "abadiy mullavachchalar" esa hatto mutloqo shu yerda qolib ketib, o'zlarini dinni o'rganishga bog'ishlar edilar. Madrasa ta'limi 3 bosqichda iborat bo'lardi: "ando" yoki "past qadam" boshlang'ich bo'lim, "avsat" yoki "miyona" o'rta bo'lim, "a'lo" yoki "pesh qadam" – oliy bo'lim. Iqtidorli shogirdlar bu bo'limlarning har birida to'rt besh yillab o'qishardi.

Madrasa shogirdlari qaysi kitobni o'qiyotganlariga qarab guruhlariga biriktirilishardi. Lekin yangi mavzuni bayon qilishpaytida mudarris har bir talabaga alohida-alohida tushuntirardi. Katta madrasalarda bunday guruhlar 5-10 va undan ortiq talabani o'z ichiga olar, unga "qori boshi" rahbarlik qilardi. Ertalabdan avval boshlang'ich bo'lim talabalari bilan keyin esa, o'rta va oliy talabalari bilan mashg'ulot o'tkazilardi. Darsdan so'ng har bir guruh bilan hujralarda o'tgan mavzu yuzasidan suhbat o'tkazililar, ba'zan u yoki bu tushuncha sharxiga doir munozara ko'tarilar, ko'pincha baxslashuvchilar o'z extiroslarini mushtlashish bilan qanoatlantirardilar.

Madrasalar qoshida "muqarrirlar" mavjud bo'lib, ular o'tilgan mavzular yuzasidan bo'sh vaqtlarida, ta'til paytlarida talabalarga dars berardilar. Vaqti kelib, ular ikkinchi mudarris "noib", keyinchalik esa birinchi mudarris "xazrat domulla" bo'lib yetishardi.

Madrsalarda ta;lim fors tilida yozilgan “Avvali ilm” kitobi asosida olib borilardi. Unda musulmon diniy qonunlari, savol va javoblar shaklida keltirilgan bo’lib, bu boshqotirmanini o’zlashtirgach shogirdlar arab tili grammatikasini o’rganishga kirishardi. Arab grammatikasiga o’ziga xos kirish sifatida “Bidon”, “Muzyy”, “Zanjoniyy”, “Avomi harakat” kabilar xizmat qilar, o’quvchilar bulardan arab tilida fel shakllarining yasalishida unlilarning ishtirokini, arab so’zlarning to’g’ri talaffuz normalarini o’rganardilar.⁵

Shogirdlar uchun ularning madrasasidan so’ngi faoliyatlarida islom, shariat qonunlariga doir darsliklarning ahamiyati katta edi. Ularda urf-odatlarini qanday o’tkazish yo’llari bayon etilgan edi: tahorat olish, namoz o’qish, ro’za tutish, muqaddas joylarni ziyorat qilish va h.k. Bundan tashqari meros taqsimotlari, savdo-sotiq, qo’ydi-chiqdi kabi janjalli masalalarni hal qilishga doir huquqiy ko’rsatmalar ham bu qo’llanmalarda mavjud edi.

Shariat qonunlariga oid b o’lgan qo’llanmalar ichida ko’p asrlar davomida qo’llanib kelingan asar “Bidoya” XXI asrlarda mafg’ilonlik mudarris Burxoniddin Marg’iloniy (vafoti 1197 yil) tomonidan yozilgan bo’lib, musulmon avtorlari tomonidan turli huquqiy masalalarga berilgan sharxlar tahliliga bag’ishlangan.

Ba’zi mualliflarning O.M.Keremskiy ma’lumotiga ko’ra jo’g’rafiyaga oid eng yaxshi asar deb fors tilida yozilgan “Ma’lumotul - faq” xisoblangan. Unda yer tuzilishi, turli mamlakatlar jo’g’rafiyasiga oid chalkash ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, qadimgi manbalardan qabul qilib olingan faktik ma’lumotlarning qayd etilishi bilan birga, jo’g’rofit mavzudagi uydirmalarga ham katta o’rin berilgan. Masalalan, asar mualliflari Er Kof tog’I bilan o’ralgan tekisliklar, yarim odam, yarim qush-Mug’ yashaydi, koinot 4 ta mavjudotdan tashkil topgan: olov, shamol, suv va tuproqdan deb uqtirardilar. Go’yo ularcha, olovning o’rnashgan joyi oy va shamol oralig’ida, shamolning o’rni olov va suvning orasida, suvning o’rni esa shamol va yer oralig’idadir. Yer boshqa mavjudodlar bilan o’ralgan. Yana shunday ma’lumotlar keltiriladi: afsonalarga ko’ra yettita osmon va yettita sayyora sistemasi mavjud, jahon yettita iqlimdan iborat va yetti dengiz mavjud, inson

⁵ Abdullayev Yu. O’zbek maktablarida savod o’rgatish metodikasidan ocherklar. T.:1960 30 bet

avlodi ham yetti irqqa bo'linadi – Xitoy, Turk, Yevropaliklar, Arablar, Forslar, Hindlar va Negirlar. Yana o'quvchilarga Sarandip tog'ida Odamato oyog'ining izi saqlanganligi haqida ham ma'lumot beriladi. Hind okeanida orol mavjud ekanligi, unda esa saroy borligi, kimki bu saroyga kirsa aqldan ozib o'lishi orolda itboshli odamlar yashashi haqida ma'lumot berilgan⁶.

Bizning fikrimizcha, eski maktab va madrasalarda faqatgina nomi yuqorida qayd etilgan kabi asarlarga emas, balki Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolarning ham ilmiy-tabiiy asarlari o'qilgan. Masalan, Beruniyning “Geodezel”, “Hindiston” asarlaridan talabalar yerning shar shaklida ekanligini o'qib bilishgan. Beruniy mazkur asarning I qism asar ikkinchi qismdan iborat bir maqolasini olamning tuzilishiga bag'ishlangan bo'lib, olimning qayd etishicha, olam yumaloq shaklga ega bo'lgan jism bo'lib, uning bir bo'lagixarakatsiz, shu qismning atrofidagilar esa fazodan aylanib harakat qilishadi. Ana shu mavjud jismlar yig'indisi olamdir. Aylana harakat qiluvchi qism “yuqori olam”, to'g'ri harakat qiluvchi qism esa “quyi olam” bo'lib, u to'rt unsur: tuproq, suv, xavo, olovdan iborat. Yer ana shularning tartib bilan joylashgan birikmasidan iborat. Ularning og'irligi olam markaziga intiladi, yoni esa markazdan qochadi. Ma'lumki, Beruniy bu fikrga Ptolomeyning “Almajastiy” nomli kitobini o'qish jarayonida kelgan. O.M.Kerenskiy va boshqa ba'zi ma'lumotlar negadir Turkiston madrasalari haqidagi tadqiqotlarda bunday faktlardan ko'z yumishgan.

Madrasada o'qitiladigan fanlarga doir huddi hikoya kabi boshqa qo'llanmalar ham mavjud bo'lib, bular formal logika “Shamsiya Umarullo Kotibiy” va musulmon ilohiyotiga oid edi. Odatda Muhammad payg'ambarga bag'ishlangan rivoyat va naqlar ifoda etilgan qadimiy risolalar va Qur'onni sharx etuvchi “Tavsif” o'rganilardi. Madrasa talabalariga arifmetikaga oid asosiy elementar bilimlar ham o'rgatilardi. Keyin ular geometriyani o'rganishga kirishar, uchburchak figuralar, to'rtburchaklar va ularni o'lchashga doir umumiy tasavvurga ega bo'lardilar. Bu bilimlar merosxo'rlar orasida yer bo'ltaklarini bo'lib berish, oliq-soliq amallarini bajarishda kerak bo'lardi. Shu tarzda matematikani o'rganish

⁶ Kirenskiy O.M. medrese Turkestanskogo karaya. Spb.1982 9-b

tugallanardi. Ta'limning mazmuni, eski o'rta asr ta'lim metodlari, madrasa talabalarining ijodiy rivojlanishi, mustaqil fikrlay olishga katta to'sqinlik qilar va bu ta'lim formal xarakter kasb etardi. Talabalardan matnlarni so'zsiz yodlash, mulozamat bilan bo'ysunish talab qilinardi.

Musulmon diniy maktablari insonlarga Ollox va uning rasuli Muhammad payg'ambar o'gitlariga rioya qilinishi, halol va to'g'riso'z, axloqan pok, yumshoq ko'ngil, mehnat orqasida kun ko'rishni o'rgatar edi.

Shunday qilib, hamma diniy maktablar: hox boshlang'ich, xoh o'rta yoki oliy bo'lsin, o'z maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan fuqorolarning manfaatlariga mos keluvchi ta'lim o'zchog'I edi. Ba'zi mualliflar musulmon ruhoniylari bu ta'sirchan vositadan hukmron tabaqa manfaatlarini himoya qilish, feodal tuzimni mustahkamlash uchun foydalanadilar, deb davo qilishlari unchalik haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki islom barcha fuqaro uchun bir hil munosabatni talab qiladi.

Bunday Sharqda maktab va madrasalar ijtimoiy fikr va progressiv pedagogik g'oyalar taraqqiyotida qanday ro'l o'ynaganligi haqida bir fikrga kelish mumkin. O'rta Osiyo va Movaraunnaxrda Ulug'bek yashagan davrdagi maktab va madrasalarning axvoli ana shunday edi. Shuni qayd etish kerakki, XIV asr oxiri XV asr boshlarida o'tgan asrlarga qaraganda madaniyat va maorif birmuncha rivojlanganligibilan farq qilib turadi. xuddi ana shu davrda ijtimoiy-siyosiy tangliklar yuz berishiga qaramay, O'rta Osiyo va Movaraunnaxr xalqlarining madaniy hayoti yuksaldi, dunyoviy bilimlarga qiziqish kuchaydi, taniqli faylasuflar, olimlar, shoirlar va yozuvchilar yetishib chiqdi. Mamlakatning siyosiy va madaniy – manaviy hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

II BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA MAKTAB VA MAORIFNING RAVNAQI

2.1. Temuriylar davri ta'limi va tarbiya tizimini darsda o'rganish

Qariyb bir yarim asr davomida mo'g'ullar istibdodi ostida xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'oldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o'z tamoyillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madaniyatining davomi sanaladi.

Shu bois XIV asr oxiri va XV asrlarda Movarounnahrdagi Sharq Uyg'onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm- ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotida madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix,

adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga havas kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e'tiqodiga ko'ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo'sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Bu borada ta'lim tizimining o'ziga xos o'rni bo'lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o'n ikki bog' va qasr yaratadi, shahar arki Ko'ksaroy, uning atrofida esa Bo'stonsaroylar bino etadi. Jome' masjidi, maqbaralar, me'moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o'zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo'ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo'ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sultonlar ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning hammasida Qur'on, Hadis, fiqh o'rganilgan. Shuningdek madrasalarning ixtisosligiga ko'ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma'muriyalar ham o'rgatilgani haqida ma'lumotlar bor.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o'rgatishga ko'proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa'diy

Sheroziyning «Guliston», «Bo'ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» va boshqalar ham o'qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o'quv ishlarini yuritish belgilangan¹.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko'zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Ulug'bek 1428—1429 yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada «Ko'ragoniy jadvali»ni, ya'ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV—XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Bu davrda o'zbek adabiyotida ham ancha siljish ro'y berib, Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Shuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o'zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

¹ Валихўжаев Ботурхон. Самарқандда олий таълим—мадрасаи олия—Университет тарихидан лавҳалар. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Самарқанд, 2001.38—47-бетлар

Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag'batlantirdi, uning o'zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug'bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o'sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqeya hisoblandi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumi, Jamshid bin Ma'sudi, Mo'yiddin va uning o'g'li Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjondi va boshqalar ijod etdilar. Hirotida esa Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug' rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, hattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403—1474) o'sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynadi. Astronomiya to'g'risida «Risolai dar falakiyot» degan kitob yozgan Ali Qushchini o'z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to'la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo'linib ta'riflanadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirotida fan, madaniyat, ma'rifat ishlarini yo'lga qo'yishda, u yerni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Hirot to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko'rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Hirotida Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, xattotlar — Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda — Qulmuhammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.

Hirotda xattotlik san'ati rivojlangan. Hatto Buxoroda «Hirotda yozuvi» mirzalar, xattotlar tomonidan 1920 yilgacha qo'llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) «Muzakkir al-ahbob» tazkirasi, Mutribiyning «Tazkira — tush shuaro» (1604—1605) to'plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan «Boburnoma» o'sha davrda yaratilgan asarlar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Amin Ahmad Roziy «Haft iqlim» («Yetti iqlim») degan geografik bibliografik lug'at tuzdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga yetdi. Sulton Ali Mashhadiy, Mirali Halaviy, Mahmud ibn Is'hoq ash-Shixaybiy va boshqalar ustoz xattot bo'lib nom qozondilar. Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi. jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiylar maktablari yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilardilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olardilar.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, IX— XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Ushbu davrdagi ijtimoiy pedagogik g'oyalar, maktab va maorif tizimining xususiyatlari, mutafakkirlar asarlaridagi ta'lim-tarbiya mazmuniga oid fikrlarni

o'quvchilar ongiga singdirish maqsadida 1-Son Samarqand pedagogika kollejida Pedagogika fanidan maxsus kurs tashkil etildi:

Maxsus kurs o'qituvchilari uchun quyidagi metodik tavsiyalarni havola qilindi:

Ma'mun akademiyasi olimlari Abulxayr ibn Hammor, Abu Nasr ibn Iroq, Ibn Sino, Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Abdulloh Iloqiy (vaf.1068), Muhammad ibn Xidr al-Xo'jandiy (XI asr), al-Muttatabib (X-XI asr), Abul Hakim al-Qosiy (X-XI asr), al-Xorazmiy (XI asr) va boshqalar hayoti, ilmiy faoliyati va pedagogik g'oyalarini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda:

- ularning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar;
- ilmiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlar;
- ular yozgan va bizgacha yetib kelgan asarlari;
- pedagogik fikr va g'oyalarining o'ziga xosligi;
- ular qo'llagan ma'naviy tushunchalar;

– mutafakkirlar ilg'or fikr va g'oyalarining bugungi kunda ta'lim muassasalarida pedagogika fanini o'qitish, talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish kerak. Quyida biz maxsus kursning mazmuni bilan tanishtiramiz:

1- mashg'ulot

Birinchi mashg'ulotda o'qituvchi maxsus kursning vazifalari, ish uslublarini yoritadi, uning zarurligi, ahamiyatini asoslab beradi, Ma'mun akademiyasi qomusiy olimlarining pedagogik merosi talabalarning kasbiy, shaxsiy va ma'naviy sifatlarning tarbiyalashdagi ta'siri haqida to'xtaladi.

Bundan tashqari, allomalarning hayoti, ilmiy faoliyati, pedagogika va ma'naviyatga oid g'oyalarga hamda badiiy adabiyotlar, sahna asarlari, boshqa materiallar bilan tanishtiradi, ma'ruza va maxsus adabiyotlardan qaydlar va ko'chirmalar olishga oid maslahatlar beradi.

2-mashg'ulot

IX-XV asrda Sharq mamlakatlarida ilm-fan va madaniyatning jadal

rivojlanish omillari bayon qilinadi.

3-mashg'ulot

Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiyning hayot yo'li, uning ilmiy faoliyati, asarlari, matematika fani rivojlanishida tutgan o'rni, yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga oid pedagogik fikr va g'oyalari bilan tanishtiriladi.

4-mashg'ulot

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning hayoti va ilmiy faoliyati. Tabiiy va pedagogika hamda ijtimoiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasi. Beruniyning tabiatga, fan asoslarini empirik o'rganishga munosabati, yoshlarda ma'naviy sifatlarning rivojlanishi, uning ma'naviy fazilatlari shakllanishida bosh omil – mehnat ekanligi haqidagi fikrlari. Ma'mun akademiyasining asoschisi sifatidagi faoliyati.

5-mashg'ulot

Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati. Ilmiy faoliyati. Tabobat ilmi rivojidagi beqiyos xizmatlari.

Inson faoliyatida aqliy, jismoniy, ma'naviy va mehnat tarbiyasi birligi haqidagi qarashlari, shaxsning shakllanishida yosh xususiyatlari va boshqa omillarning ta'siri haqidagi fikrlari.

6-mashg'ulot

Ma'mun akademiyasi. Uning tashkil topish tarixi, akademiyada faoliyat ko'rsatgan olimlar. Ularning buyuk kashfiyotlari.

Akademiya a'zolarining pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi. Ularning ma'naviy tarbiya, kollej talabalarining shaxsiy-ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan fikrlari, bugungi kundagi ahamiyati.

7-mashg'ulot

O'qituvchi o'z ma'ruzasida umumlashtiruvchi xulosalar qilib, Ma'mun akademiyasi olimlarining din va ilm-fanga oid asosiy pedagogik qarashlari; insonning kelib chiqishi, tabiat va jamiyatdagi o'rni, tarbiyaning maqsad va vazifalari, uning tarkibiy qismlari(aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik va mehnat tarbiyasi), ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati, tamoyillari, shakl va usullari,

ularning gnoseologik talqini, o'qituvchiga, uning shaxsiga qo'yiladigan talablar, oila tarbiyasi masalalari xususida to'xtaladi.

Qomusiy olimlar pedagogik merosining alohida qimmatini, kollej talabalarining kasbiy va ma'naviy tayyorgarligida ulkan imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

O'tmish allomalarining pedagogik fikr va g'oyalarini bilish va yuqori baholashgina emas, ularni ijodiy qo'llay olish malakalarini egallash zarurligi ham uqtiriladi. Yakuniy mashg'ulotda mavzuga doir konferensiya darsi o'tkazilishi ham mumkin. Konferensiya darsini «hozirgi zamon yoshlarining ma'naviy sifatleri: u qanday bo'lishi kerak» mavzusida o'tkazish maqsadga muvofiq. Konferensiyaga tayyorlanishda, albatta Sharq mutafakkirlarining talabalar ma'naviy sifatlerini tarbiyalashga xizmat qiladigan fikr va g'oyalari bilan birga hozirgi davrda yoshlar egallashi zarur bo'lgan xislatlar uyg'unlashadi.

Mashg'ulotlar oxirida o'tkaziladigan o'quv viktorinasi ham talabalarning fanga doir qiziqishini uyg'otadi. U quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

1. IX-XV asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishida asosiy omillar nimalardan iborat edi?
2. Ma'mun akademiyasi olimlarini sanab bering. Nima sababdan ularni qomusiy olimlar deymiz?
3. Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ma'naviy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati. Uning qaysi pedagogik fikr va g'oyalari sizningcha alohida qimmatga ega?
5. Sharq qomusiy olimlarining pedagogik qarashlaridagi qaysi asosiy yo'nalishlar Ma'mun akademiyasidagi olimlar faoliyati yo'nalishlariga to'g'ri keladi?
6. Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan olimlarning ma'naviy tarbiyaga oid fikrlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Barkamollik mezonlari nimalardan iborat?
8. Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini keyingi avlod olimlaridan kimlar rivojlantirdi?

9. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa allomalarning pedagogik merosi bilan tanishish sizga nimalar berdi? Kelajakdagi pedagogik faoliyatingizda undan qanday foydalanmoqchisiz?

Viktorina so'ngida hakamlar hay'ati (talabalar) qarori e'lon qilinadi va g'oliblarga esdalik sovg'alari topshiriladi.

Bundan tashqari, «Ma'mun akademiyasi olimlarining talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va pedagogika fani rivojlanishida tutgan o'rni» mavzusidagi maxsus seminar ham pedagogika fanini o'qitishda kollej talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda ijobiy natijalar berdi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, Ma'mun akademiyasi olimlarining barkamol shaxs sifatlarini tarbiyalashga oid ilg'or qarashlari bugungi kunda ham yuksak qimmatga ega.

Ma'mun akademiyasi olimlarining pedagogik merosini o'rganish talabalarga turli davr olimlarining insonning jamiyatdagi o'rni, tarbiya, ayniqsa ma'naviy tarbiyaning maqsadi va vazifalari, tarkibiy qismlari, talaba-yoshlarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlanishiga ta'sir etadigan omillar, o'qituvchi shaxsiga talablar, oiladagi tarbiya va boshqa masalalarga qarashlarini kuzatish imkonini beradi.

Biroq, bu merosni shunchaki bilishning o'zi kifoya qilmaydi, undan foydalana olish, pedagogik faoliyatda uni qo'llashning yo'llari va metodlarini aniqlash lozim.

Bu borada «Pedagogika» kursidan tashkil etilgan «Sharq mutafakkirlarining talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir qarashlari» mavzusidagi maxsus seminar muhim ahamiyat kasb etdi. Maxsus seminarining vazifalari:

1. Kollej talabalarining Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi haqidagi bilimlarini kengaytirish va umumlashtirish.

2. Pedagogika fanini o'qitishning barkamol shaxs sifatlarini tarbiyalashdagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash va tavsiflash.

3. Kollej talabalarini bugungi kunda dolzarb bo'lgan ma'naviy sifatlarini tarbiyalash haqidagi pedagogik fikr va g'oyalarini ijodiy o'zlashtirish, kelgusi faoliyatida ulardan foydalanishga yo'naltirish.

Maxsus seminarining asosiy ish shakli dars, asosiy metodlari – kollej talabalarining ma’ruzalarini tinglash va muhokama qilish, mustaqil ish davomida o’rgangan falsafiy, tarixiy, pedagogik bilimlarini umumlashtirishdan iborat edi.

Kollej talabalariga mustaqil holda ma’ruza uchun mavzu tanlashga imkon berildi. Ma’ruzaga, uning mazmuni yuzasidan chiqishlarga, ma’ruzalarni kichik hajmdagi referat tarzida rasmiylashtirishga qo’yiladigan talablar bilan tanishtirildi. Adabiyotlar ro’yxati tavsiya etildi.

Dastlabki mashg’ulotda talabalarning O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bo’yicha ma’naviy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalariga oid ikkita ma’ruzani tinglash va muhokama qilish vazifasi qo’yildi. So’ng maxsus seminarda ko’riladigan masalalar mazmuni bilan tanishtirildi.

Birinchi mashg’ulotda o’rta asrlarda Ma’mun akademiyasi olimlarining ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishiga tarixiy omillarning ko’rsatgan ta’siri yoritiladi: al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniyning yoshlarni ma’naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikrlarining asosiy yo’nalishlariga tavsiflab berildi.

Ikkinchi mashg’ulot Ma’mun akademiyasi olimlari ijodida barkamol shaxs sifatlarini tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillar: ma’naviy tarbiya va ma’naviy sifatlar haqidagi mavzularga bag’ishlandi.

Uchinchi mashg’ulot talabalarning «Yaqin va O’rta Sharq allomalarining yoshlar ma’naviy sifatlarini tarbiyalash shakl va usullari to’g’risida» mavzusidagi ma’ruzalarining muhokamasiga bag’ishlandi.

To’rtinchi mashg’ulotda talabalarning «Ma’mun akademiyasi allomalari ma’naviy tarbiya haqida» mavzusidagi ma’ruzalari muhokama qilindi.

Talabalar o’zaro taqriz qilish uchun referatlar almashdi, hammaga to’ldirish uchun so’rovnoma tarqatiladi.

Maxsus kurs bo’yicha anketa savollari va javoblari quyidagi natijalarni berdi (2.1.-jadval):

2.1-jadval

t/ r	So'rovnoma savollari	156 nafar talaba (foiz hisobida)					
		Tajriba guruhi (N ₁ =78)			Nazorat guruhi (N ₂ =78)		
		yuqori	O'rta	past	yuqori	O'rta	Past
1	IX-XV asrlarda Sharq mamlakatlarida fan va madaniyat rivoji nimalarga bog'liq edi?	32	30	16	22	14	42
2	O'sha davrning yetuk qomusiy olimlarini yozib chiqing.	30	28	20	28	21	29
3	Nima uchun ularni qomusiy ilm sohiblari deymiz?	35	25	18	22	25	31
4	Beruniy hayoti va ma'naviy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?	37	27	14	23	33	22
5	Ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz? Uning qaysi pedagogik qarashlari sizningcha alohida ahamiyatga ega?	39	28	11	21	21	36
7	Ma'mun akademiyasi olimlarining pedagogik qarashlaridagi asosiy yo'nalishlar nimalardan iborat edi?	35	24	19	25	30	23
8	Ma'mun akademiyasi olimlari va ularning ma'naviy tarbiyaga oid fikrlarini yozing.	39	27	12	22	30	26
9	Respublikamizda qomusiy olimlar nomi bilan atalgan joylarni yozib chiqing.	34	30	14	20	32	26

Izoh: N₁, N₂ tajriba va nazorat guruhlari talabalarining umumiy soni.

«Pedagogika» kursi o'quv fanini o'rganib bo'lgandan so'ng mashg'ulotlar o'quv konferensiyasi bilan yakunlandi.

Konferensiya rejasi quyidagicha tuzildi:

1 – variant

1. Muhokama etiladigan masalalar.
2. Sharq allomalarining pedagogik fikr va g'oyalari haqida ma'ruza.
3. So'rovnoma yakunlarini e'lon qilish.
4. Talabalarining eng yaxshi taqrizlari va eng yaxshi referatlarini e'lon qilish.
5. Yakunlash.

2– variant

Konferensiya ishtirokchilari avval besh guruhga bo'linadi. Har bir guruh bitta olimning ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan pedagogik fikr va g'oyalari yuzasidan ma'ruza tayyorlaydi. Ma'lum ketma-ketlikda chiqish qilar ekan, talabalar maxsus seminar, unga mustaqil tayyorlanish jarayonida o'zlariga topshirilgan olimning hayoti, ilmiy faoliyati va pedagogik fikr va g'oyalari haqida o'rganganlarini umumlashtiradilar. O'z chiqishlarida maxsus tayyorlangan materiallar: portretlar, diopozitivlar, slaydlar, kitoblar, shu olim faoliyatini tadqiq etgan olimlardan intervyu, audio, videomateriallar va boshqalarni tayyorlaydilar (ma'ruzani ko'rgazmali misollar yordamida tushuntiradi.)

O'quv konferensiyasi qatnashchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin: hozirgi yoshlar qanday ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi kerak? Qomusiy olimlar talabalarining ma'naviy sifatlari qanday talablar qo'yadi?

Savollar yuzasidan fikr almashuvdan so'ng, yakun yasaldi: Talabalarining so'rovnomalarga javoblari, eng yaxshi referat va taqrizlar e'lon qilindi.

2.2.2-jadval

Maxsus seminar natijalari

t/r	So'rovnoma savollari	156 nafar talaba (foiz hisobida)					
		Tajriba guruhi (N ₁ =78)			Nazorat guruhi (N ₂ =78)		
		Yuqori	o'rta	past	yuqori	o'rta	past
1	Sharq mutafakkirlarining ma'naviy tarbiyaga oid qarashlarini bugun dolzarb deb hisoblaysizmi?	30	32	16	28	30	20

2	Maxsus seminargacha ular bilan tanishmidingiz?	32	30	16	25	27	26
3	Talabalar ma'naviy tarbiyasining asosiy mezonlarini yozib chiqing.	35	28	15	24	35	19
4	Allomalarning ma'naviy sifatlaridan qaysi biri siz uchun muhim?	37	31	10	22	39	17
5	Ma'mun akademiyasi allomalarning fikrlariga ko'ra ma'naviyatning asosiy belgilari nimalardan iborat?	38	28	12	25	30	23
6	Beruniyning yoshlar tarbiyasiga oid fikrlari nimalardan iborat?	35	25	18	29	30	19
7	Ibn Sinoning yoshlar tarbiyasiga oid talablari nimalardan iborat?	32	29	17	20	32	26

Yuqorida muammoga doir amaliy ishlar natijalaridan ko'rinib turibdiki: 1. «Pedagogika» kursidan nazariy ma'lumotlarni amaliyotga joriy etish talabalarning ma'naviy sifatlarini o'z shaxsiy hayotlarida tarkib topishida ijobiy natijalarga olib keldi. 2. Talabalar amaliy mashg'ulotlarida qo'yilgan muammolarni hal etishda erkin, ijodiy, mustaqil fikrlashga harakat qildilar. 3. Talabalar ma'ruzalarda o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llashi ularning bilim, malaka va ko'nikmalari rivojlanayotganligi ma'lum bo'ldi. Buni biz tadqiqot natijalarini tahlil etish orqali aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

«Pedagogika» darslarida talabalarga singdirilgan ijtimoiy pedagogik g'oyalar, maktab va madrasalardagi o'quv mashg'ulotlari ularning borliqqa munosabati, xulq-atvorining me'yori bo'lib xizmat qila oladi. Ma'naviy sifatlar aql, adolat, mas'uliyat, o'zaro yordam, mehr-shafqat kabi xulq-odob me'yorlari bilan uzviy bog'liq. O'quvchilarning ijtimoiy pedagogik g'oyalar tarixiga oid bilim va tushunchalarini tarbiyalashda «Pedagogika tarixi» darslari, kurs doirasida tashkil etiladigan seminar mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyida Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi

olimlarining asarlari asosida tashkil etilgan seminar mashg'uloti haqida fikr yuritamiz.

Seminar mashg'uloti mavzusi «**Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari (IX–XIII asrlar)**» tarzida belgilanib, u quyidagi reja asosida o'tkazildi.

Reja:

1. Sharq uyg'onish davri va unda ilm-fan rivojlanishi yo'nalishlari.
2. Ma'mun akademiyasi olimlarining ma'naviy-ahloqiy qarashlari.
3. Ma'mun akademiyasi olimlari ma'naviy-ahloqiy qarashlarining inson tarbiyasidagi ahamiyati va ularning talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash imkoniyatlari.

Islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab Xalifaligidagi ilm-fanning taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX asrga kelib ma'naviy ko'tarilish, Uyg'onish davrini boshlab berdi.

Al-Ma'mun tomonidan tashkil etilgan «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi va Sharqda ilm-fanning taraqqiy etishi, ma'naviy hayotning yuksalishiga ta'sir etdi.

Butun Sharqda bo'lgani kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida mashhur bo'lgan faylasuf va munajjimlar, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy meros bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.

Eslab qoling! «Bayt ul-hikma» olimlari orasida Markaziy Osiyolik Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abbos Ibn Said Javhariy, Ahmad Ibn Markaziy kabilar ham bo'lgan.

«Bayt ul-hikma» olimlari orasida hamyurtimiz Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy alohida mavqyega ega bo'lgan. Ahmad Farg'oniy uning taklifi bilan 815 yilda yozib tugatgan astronomiyaga oid asarini muhokamaga qo'yadi, ilmiy jamoa unga yuqori baho beradi. Oqibat natijada yosh olim Ahmad Farg'oniy bu nufuzli maskanning haqiqiy a'zosi etib qabul qilinadi. Xorazmiy vafotidan so'ng Ahmad

Farg'oniy bu jamoaning yetakchi allomalaridan biriga aylanadi, uning dovrug'i butun O'rta va Yaqin Sharqqa yoyiladi.

Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan savollar

1. IX–X asrlarda ilm-fanning yuksalishi.
2. «Bayt ul hikma» va uning ilm-fan rivojidagi ahamiyati.
3. IX–X asrlarda pedagogik fikr taraqqiyoti va uning asosiy yo'nalishlari.

«Bayt ul hikma» olimlarining Xorazm Ma'mun akademiyasi shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri.

Navbatdagi seminar mavzusi **«Abu Ali ibn Sinoning ma'naviy ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari»** deb nomlanadi. Bu seminar mashg'uloti quyidagi reja asosida tashkil etiladi.

Reja:

1. Abu Ali ibn Sino o'rta asrlarda yashab o'tgan qomusiy olimdir.
2. Abu Ali Ibn Sino ta'limotida ma'naviy ta'lim-tarbiya usullari, shakl va usullari.
3. Ibn Sino jismoniy va bola tarbiyasi haqida.
4. Ibn Sino pedagogik qarashlarining bugungi kunda talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati.

Abu Ali Ibn Sinoning fan va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasi uchun ham Sharqda xalq unga «Shayx ur-ra'is» («Olimlar boshlig'i»), Yevropada «Olimlar podshosi» degan hurmatli unvon beradilar.

Ibn Sino 980 yilda Buxoro shahriga yaqin Afshona qishlogida kichik amaldor oilasida tug'ilgan.

IX asrning oxiri X asr boshlariga kelib, o'lkada ijtimoiy-siyosiy vaziyat murakkablashadi, Qoraxoniylar Somoniylar davlatini bosib oladi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga - Gurganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi» da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi.

Buni yodda saqlang!

Ibn Sino umrining so'nggi yillarida Gurganj, Ray va Hamadonda yashaydi. U 1037 yil oxirida Isfahonda vafot etadi.

Ibn Sinoning odob-axloq va insonparvarlik haqidagi ta'limoti katta ilmiy–amaliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ta'limot, inson olam rivojlanishining toji bo'lib, u buyuk sharaf va hurmatga loyiqdir, degan fikrga asoslanadi.

Bilib qo'ying!

Ibn Sinoning falsafiy qissalarida ilmning aslo qarimasligi, uning olamni kezishi, kishilarni jaholat va nodonlik g'aflatidan uyg'otishi haqidagi g'oyani ilgari suradi.

Ibn Sinoning ma'naviy–axloqiy va ma'rifiy masalalar haqida olg'a surgan ilg'or g'oyalari:

Yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rohat va azob-uqubat, saxiylik va baxillik, kamtarlik va maqtanchoqlik, vafodorlik va bevafoqlik kabilardir.

Ibn Sino fanlarni quyidagicha tasnif etadi:

Birinchi guruhga – etika, iqtisod, siyosat

Ikkinchi guruhga – fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlar.

Bilib oling!

Markaziy Osiyo ma'naviyatining ulkan arboblardan biri hisoblangan Ibn Sinoning asli ismi sharifi Abu Ali al-Husayn Ibn Abdulloh ibn Sinodir. Ibn Sino jahon madaniyati tarixida qomusiy bilimga ega bo'lgan yirik arbob sifatida alohida o'rin tutadi. U fanning turli sohalariga oid 450 dan ortiq asari mavjudligi to'g'risida olimlar ma'lumot beradilar. Ularda tibbiyot, musiqa, falsafa, etika, ilohiyotshunoslik, ijtimoiyot, siyosat, tilshunoslik, estetika masalalari atroflicha yoritilgan.

Mushohada uchun!

Alloma yaratgan «Kitob ash-Shifo» 18 tomdan iborat bo'lib, falsafiy bilimlar qomusi hisoblanadi, u o'z ichiga 4 ta katta bo'lim (mantiq, fizika,

matematika, metafizika)ni oladi. Ibn Sinoning «Kitob ul-insof» («Adolat kitobi») asari 21 jilddan iborat bo'lgan.

Bilasizmi?

Ibn Sino sakkizta doston yozgan. Bular: sog'liqni saqlash-gigiyena haqida urjuza; Yilning to'rt fasli haqida urjuza; Anatomiya haqida urjuza; Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza; Tabobat haqida urjuza; Tibbiy nasihatlar haqida urjuza; Aloqa haqida urjuza.

Buni yodda saqlang!

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda, jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish.

Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan savollar.

1. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganib kelish.
2. Alloma qachon va qayerda tug'ilgan?
3. Ibn Sino fikriga ko'ra o'qituvchi qanday bo'lishi kerak?
4. Ibn Sinoning qaysi asarlarini bilasiz?
5. «Kitob ash-Shifo» kitobi necha tomlik va buning necha tomi mantiqqa oid?
6. Ibn Sino fanlar tasnifi muammosini qay tarzda hal etgan?
7. Ibn Sino axloqiy xislatlarga bergan ta'rifini keltiring.
8. Olimning axloqqa bergan ta'rifini bilasizmi?
9. Ibn Sinoning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlari.
10. Ibn Sinoning qaysi umumbashariy qadriyatlarini bilasiz?

Buni yod oling!

Axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakati me'yorlari va qoidalarini o'rganadi.

Ibn Sino do'stlikni 3 turga bo'ladi:

1. Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolgiz qoldirmaydigan do'stlik.
2. Manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik.
3. O'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik.

Ibn Sino hikmatlari

Aysh-ishrat va bekorchilikdan buzuqlik va kasalmandlik kelib chiqadi. Aksincha, aqlning nimagadir intilishi sog'liqni muttasil mustahkamlanib boradigan bardamlilikni yuzaga chiqaradi.

1. Do'stimki, dushmanimga do'stlik qilar ekan, uni men do'st hisoblamayman. Zaharga qo'shilgan shakardan ehtiyot bo'l, o'laksa ilon ustiga qo'ngan pashshadan o'zingni tort.
2. Abu Ali Ibn Sino o'zi davolayotgan kasallarga bunday der ekan:
 - Biz uch tarafmiz: men (tabib), sen (bemor) va u (kasallik). Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tarafga o'tib olsang, ikkovingni yengishim qiyin...
3. Go'sht tanani mustahkamlaydigan taom bo'lib, u boshqa ovqatlarga nisbatan qonni tezroq ko'paytiradi.
4. «Erta saharda anor, tushda piyozli ovqat yesang, yotish oldidan asal nush etsang, qoning ko'z yoshidek beg'ubor bo'ladi».
5. Har kishi anjir tanovul aylasa tun-kun mudom, ko'ksidan balg'amni haydar, bartaraf qilg'ay taom.
6. Sholg'om urug'ini tuyib, maydalab,
Asal bilan qo'shib qilsang iste'mol.
Ichingni yumshatar, zaharni kesar.
Belingni baquvvat qiladi darhol.

7. Surma qo'ysa har kishi ko'ziga laylu nahor,

Ko'zidan suv oqmagay va nuri bo'lgay beg'ubor.

8. Ketma-ket mast bo'lish juda yomondirki, jigarni va mijozni buzadi, asabni kuchsiz qiladi. Asab kasalliklarini, sakta kasalligini va to'satdan o'lishni keltiradi.

9. Qora yer qa'ridan to avji Zuhul,

Koinot mushkuli barin qildim hal.

Ko'p mushkul tugunni angladim, yechdim.

Yechilmay qolgani birgina ajal.

Ibn Sino jismoniy tarbiya haqida

Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotiga jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi. U jismoniy mashqlar, ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya qilish inson sog'lig'ini saqlashda asosiy kuch ekanligini ham amaliy jihatdan asosladi.

Buni yod oling!

O'qituvchi qanday bo'lishi kerak?

- o'quvchi bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimlarni talabalar qanday o'zlashtirib o'layotganligiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarini egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish; berilayotgan bilimlarning eng zarurini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so'zning o'quvchi hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

2.2. TEMURIYLAR DAVRI IJTIMOIIY PEDAGOGIK QARASHLARINI SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA O'RGANISH.

AMIR TEMURNING ILM-FAN VA MADANIYAT ISHLARI BO'YICHA QILGAN HARAKATLARINI O'RGANISH

(Kollej kutubxonasi bilan hamkorlikda tashkil qilingan darsdan tashqari
mashg'ulot ssenariysi)

Mashg'ulot oliygoh kutubxonasida olib boriladi. O'quvchilar Amir Temur ijodi, Sohibqiron haqidagi asarlar va bevosita Amir Temur davrida va uning homiyligida yaratilgan kitoblar va san'at asarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kutubxona xodimlari maxsus shu masala bo'yicha oldindan tayyorlanib, o'quvchilarga ma'lumot beradilar.

Maqsad:

- o'quvchilarni ta'lim muassasi kutubxonasidagi Amir Temur hayoti va faoliyati to'g'risidagi asarlar bilan yaqinroq tanishtirish;
- Amir Temurning ilm-fan va madaniyat bo'yicha qilgan harakatlarini o'rganish orqali oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish.

1-boshlovchi: Sohibqiron Amir Temur barpo etgan qudratli markazlashgan davlat turk millatining birlashishi va jipslashishiga tayanch bo'lib xizmat qildi, millatning ravnaq topishiga, milliy tuyg'uning uyg'onishiga yordam berdi, madaniyatining, ilm-fanining rivojlanishida mislsiz ahamiyat kasb etdi. Bu davrda turk xalqlari tarixiga doir Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush shuaro", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" nomli mashhur asarlari yozildi, Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi ish olib bordi va "Ziji jadidi Ko'ragoniy" dunyoga keldi.

2-boshlovchi: Ilm-fan va madaniyat saltanat uchun ma'naviy ozuqadir. Buni Amir Temur yaxshi bilgan, shuning uchun ham u olim va fozil kishilarni o'ziga do'st tutgan, ularni hurmat-izzat qilgan, davlatni boshqarishda ularning maslahatlariga tayangan.

“Temur tuzuklari”da shunday vasiyat qiladi “...baxtli farzandlarim va qudratli nabiralaringa ma'lum bo'lsinkim, men sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqildonolar, muhaddislar, tarixshunoslarni sara va e'tiborli odamlar hisoblab, izzatu-hurmatlarini o'rniga qo'ydim”.

Bugun sizlar bilgan, millatimizning faxri, iftixori bo'lgan bobomiz Amir Temurning qilgan savob ishlaridan bir qirrasini, u kishining ilm-fan va madaniyatga qilgan homiyliklarini tahlil qilamiz va xulosalar chiqaramiz.

1-o'quvchi: Tarixchilar Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh va boshqalarning guvohlik berishlaricha, Amir Temur o'z saroyiga yetuk olimlarni, xususan ilohiyot olimlarini, faqihlarni, falakiyot(astronomiya), tibbiyot, riyoziyot(matematika), falsafa, tarix, musiqashunoslik, ilmi aruz fanlarining yetuk namoyondalarini to'plagan.” Ajoyib ul-ma'qdur fi tarixi Temur”(“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) kitobida bu olimlar haqlarida qisqa, lekin juda qimmatli ma'lumotlar topish mumkin. Ular ilohiyot olimlari Jaloluddin Ahmad al-Xorazmiy, fiqh olimlari Abdulmalik, Isomiddin va shayx Shamsuddin Muhammad Jazoiriy, ilohiyot olimi mavlono Ahmad, musiqashunoslar ota-bola Abdulqodir va Safiuddin Marog'iy, musiqashunos Ardashir Changiy, shuningdek faylasuflar Sa'duddin Taftazoniy va Mir Said Sharif Jurjoniy, yirik tarixchilar Nizomiddin Shomiy va Ibn Arabshoh Hofizi Abru va boshqalar. Manbalarda, shuningdek, mohir rassomlar Pir Ahmad Bog'ishamoliy bilan Abdulhay Bog'dodiylarning nomlari ham zikr etilgan. Bu olimlar bizgacha nomlari yetib kelganlari. Tarixchilarning guvohlik berishlaricha, kitoblarga kiritilmagan, lekin saroyning oldi olimlarining son-sanog'i yo'q, Amir Temur ilm-fan va madaniyatning rivojiga foydasi tegishi mumkin bo'lgan har bir tirik jonni Samarqandga keltirtirgan, ularga

sharoit yaratib bergan, homiylik qilgan va shu orqali jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shgan.

2-o'quvchi: Mavlono Abdulmalik mashhur “al-Hidoya” muallifi Burhoniddin Marg'inoniyning avlodi bo'lib, mudarrislik qilgan. Madrasadan bo'sh vaqtlarida odamlarni shatranj va nard o'yinlariga o'qitgan, she'rlar yozgan.

Hadisshunos olimlardan shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazoiriy bo'lib, Amir Temur uni Rumdan olib kelgan. U Sherozda vafot etgan.

1393 yili Amir Temur Sherozdan bir nechta olimlarni olib keltiradi: ular Sa'duddin at-Taftazoniy va Mir Sayid Sharif Jurjoniylar katta faylasuf olimlardan bo'lishgan. Ulardan arab va fors tillarida yozilgan risolalar, fiqh, astronomiya va falsafaga oid kitoblar qolgan.

Tarixchi Ibn Arabshoh Temur zamonasida o'tgan tafsirchi olim, muhaddis va qori hoja Muhammad Zohid Buxoriy va mavlono Faxruddinlarning nomlarini ham hurmat bilan tilga oladi.

3-o'quvchi: Amir Temur davridagi ilm ahlini eslaganda yirik olim xoja Muhammad Porsoni eslamay bo'lmas. U Naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan namoyondalarining hayot va karomatlari haqida, umuman tasavvufning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan ko'plab asarlar muallifidir. Uning “Risolai kudsiya”(“Kudsiy kalimalar haqida risola”), ”Maqomati xoja Alouddin Attor”, ”Fasl ul-xitob”(“qat'iy xitob”), ”Mahaq al-orifin”(“Ma'rifatli kishilarni farqlovchi maxaq toshi”) (Maxaq toshi – kumush va oltinga surtilib, ularning sof yoki qalbakilini aniqlovchi maxsus tosh ekan- muall. izohi), ”Taxqiqot”(“Haqiqatni izlash “), ”Risola” kabi muhim asarlari o'z zamonidayoq ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini qozongan.

4-o'quvchi: Hamma davrlarda ham tibbiyotga, tabiblarga muhtojlik bor. Ayniqsa o'sha zamonlarda – urush-talashlar kuchaygan bir davrda tabiblar va Dor ush-shifo (shifo uylari)ga ehtiyoj juda kuchaygan. Tabiblar va shifokorlarga e'tibor kuchli bo'lgan. Tarixiy manbalarda Temur va Temuriylar davrida juda ko'p mohir tabiblar yashaganligi va tibbiyotga oid muhim asarlar yozilganligi haqida

ma'lumotlar bor. Bulardan tabiblar sardori mavlono Farrux, mavlono Jaloluddinlardir. Zamonasining yana bir mohir tabiblaridan mavlono Ahmadning nomini tarixchi Ibn Arabshoh alohida hurmat bilan tilga oladi: "U misgar va yulduzlarga qarab hisob oladigan, inson taqdirini belgilaydigan olim kishi edi. Ul zot menga – "men yulduzlarga qarab ikki yuz yilga hukmi tole' chiqardim",- degan edilar".

5-o'quvchi: Amir Temur va Temuriylar davrida tarix fani juda taraqqiy qilgan edi. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma"si, G'iyosiddin Ali Yazdiyning "Ro'znomayi g'azovoti Hindiston", Hofizi Abruning "Zayli Zafarnoma"("Zafarnoma"ga ilova), Tojiddin as-Salmoniyning "Tarixnoma"si, Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus"("To'rt ulus tarixi"), Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-say'dayn va majma' ul-baxrayn"("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki azim daryoning qo'shilish o'rni"), Mirxondning "Ravzat us-safo" ("Poklik bog'i"), Xondamirning "Habib us siyar fi axbor va afrod ul-bashar"(Inson xabarlarini va fardlarida do'stning tarjimai holi), Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari o'sha davrning eng sara ilmiy mahsulidir.

6-o'quvchi: Millatimizning fari, milliy iftixori bo'lgan Amir Temurning bunyodkorlik ishlari haqida hammamiz yaxshi bilamiz. Aynan shu davrda me'morchilik ham maxsus ilm darajasiga ko'tarildi. Muhtasham binolar, ko'rkam imoratlar me'mor-muhandislar tomonidan avvaldan tuzilgan loyihalar asosida, Amir Temurning bevosita rahbarligida qurilgan. Ular nafaqat betakror husni-chiroyi, balki mustahkamligi jihatidan ham juda ahamiyatga molik bo'lgan. Bu binolarning ba'zilari hatto bizning zamonamizgacha yetib kelgan va shaharlarimizni bezab turibdi. Mustaqillik sharofati bilan ularni qayta ta'mirlash va kelgusi avlodlarga ham qoldirish imkoniyati topilganidan faxrlanamiz.

7-o'quvchi: Temur va Temuriylar davrida husnixat bilan ko'chirilgan kitoblar, binolarga yozilgan naqshin xatlar saqlangan. Ayniqsa, sangtaroshlar, yog'ochmetall va toshga o'yib xat yozuvchi mohir hattotlar ko'p bo'lgan. Mashhur

tarixchi Ibn Arabshoh ulardan ibn Bandgir, Abdulqodir, yuqorida ismi-sharifi tilga olingan “Tarixnoma” kitobining muallifi Tojuddin as-Salmoniy va usta Oltunlarni tilga olib o’tgan.

8-o’quvchi: Temur va Temuriylar zamonida xalq amaliy va miniatyura san’ati ham keng rivojlangan edi. Shohi zindadagi Shirinbeka-og’a va Tuman-og’a maqbaralari devorlariga ishlangan naqshlar, Go’ri Amirga qo’yilgan chiroqdan, Abulqosim Firdavsiyning bebaho “Shohnoma”si, ”Eron shoirlari antologiyasi”ga ishlangan miniatyuralar turkistonlik rassom va naqqoshlarning baland did va iste’dodining mahsulidir. Samarqandlik rassom va hattotlar orasida usta Abdulhay, Pir Ahmad Bog’ishamoliy va hoji Bandgir Tabriziylarning nomi san’atimiz tarixida alohida o’rin tutadi. Bu katta ishlarga bevosita bosh bo’lgan Sohibqiron bobomizning ulushlari bizga ular bilan faxrlanish tuyg’ularini singdiradi, ularga munosib vorislar bo’lishga undaydi.

9-o’quvchi: Turkistondagi hoja Ahmad Yassaviy va Shohi zindadagi maqbaralarga tegishli buyumlar, ularning o’ymakor eshiklaridan ko’ramizki, Amir Temur davrida ustalar yog’och va toshga o’yib naqsh soluvchilar; oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan ishlangan zeb-ziynat va uy-ro’zg’or buyumlarini ishlab chiqarishda ham zo’r shuhrat qozonganlar.

10-o’quvchi: Aynan shu XIU asrning ikkinchi yarmi va XU asrlarda Movarounnahr bilan Xurosonda adabiyot va adabiyotshunoslik ham keng rivoj topdi. Bu haqda mashhur adabiyotshunos olim Davlatshoh Samarqandiy va Alisher Navoiyning ”Tazkirat ush-shuaro” va “Majolis un-nafois” asarlarida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Mazkur tazkiralarda juda ko’p adabiyot namoyondalari va adabiyotshunoslarning, masalan, Hoja Abdulmalik Samarqandiy, Bisotiy Samarqandiy, Hoja Ismatulla Buxoriy, Hiyoliy Buxoriy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Sakkokiy va boshqalarning nomlari keltirilgan. Lekin, afsuski, bularning ayrimlari, masalan, Abdulmalik Samarqandiy, Bisotiy Samarqandiy, Hoja Ismatulla Buxoriy haqida juda kam ma’lumotga egamiz. Qisqacha ma’lumotlarda o’qiymizki, hoja Abdulmalik Samarqandiy Temur zamonida shayx ul-islomlik

lavozimida turgan, lekin yetuk g'azalnavis shoir ham bo'lgan; Bisotiy Samarqandiy bilan Xiyoliy Buxoriyning bo'yra to'quvchilik bilan tirikchilik qilganlarini bilamiz, xolos.

11-o'quvchi: Amir Temurning shaxsan homiyligida olimlaru-shoirlar, madaniyat va san'at namoyondalari gurkirab ijod qildilar. Mavlono Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Sakkokiy va boshqalar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lganligimiz bois, ularni eslasak, ruhlarini shod qilsak, o'zbeklarimizning faxri, milliy iftixori sifatida chuqurroq o'rganishni maqsad qilsak.

Mavlono Lutfiy XIU-XU asrlardagi o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyondasi bo'lib, o'zbek, fors va tojik tillarida asarlar yozgan. Shoir Alisher Navoiy bilan juda yaqin tanish bo'lgan, ularni ustoz-shogird munosabatlari bog'lab turadi. Bizgacha uning katta lirik asarlari yetib kelgan. Lutfiyning adabiy merosida dostonlar alohida o'rin egallaydi. Shulardan biri 1411 yilda yaratilgan "Gul va Navro'z"dir. Axloq-odob mavzuida "Mashqun ul-haqoyiq"nomli asari eslanadi. Lutfiy musiqa tarixi bilan ham shug'ullangan, kuylar bastalagan. Mamlakatimizda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, shuningdek, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Lutfiy devonining o'nlab nodir nusxalari saqlanadi. Ushbu manbalar devonning London va Parijdagi nusxalari bilan solishtirilib, uning qator "Saylanma" nashrlari yaratildi. Lutfiyning "Sensan sevarim" to'plami so'nggi o'n yillikda nashr etilgan devonidir. Alloh o'zi yaratgan jonzotlar va mavjudotlar orasida insonni bir yuqori pog'onaga ko'tardi. Unga o'z nurini berdi. Inson shu sababli ham azizdir. U husn bobida ham "mazhari sun'i ilohdir". Inson shu qadar mo'tabarki,Alloh uning yuzida o'z aksini ko'radi:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,

Ko'zgudek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.

Lutfiy she'riyati,uning ijodi,salkam 100 yillik umri,shaxsiy ibрати – bular alohida bir darslik, alohida munozara va o'rganishlarni talab qiladigan masala.

Biz yoshlar bu bobolarimiz bilan faxrlanamiz, shunday talantlarning yuzaga chiqishiga homiylik qilgan Amir Temur hazratlarini doimo yodda saqlaymiz.

Ilm-fan va madaniyatga homiylik qilib o'zbek xalqini jahonda o'z o'rnini bo'lishiga sababchi bo'lgan Sohibqiron Amir Temur bizning milliy iftixorimizdir.

12-o'quvchi: O'zbek mumtoz adabiyotida yorqin iz qoldirgan, betakror g'azallar va qasidalar yaratgan yetuk iste'dod egasi, lirik shoir Sakkokiy haqida ham fikrlarimizni o'rtoqlashsak. Shoir ijodining gullagan davri Ulug'bek hukmronlik qilgan davrlarga to'g'ri keladi. Bir necha bor ta'kidlab o'tganimizdek, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat xodimlariga barcha sharoitlar yaratilgan. Sakkokiy ham Ulug'bekdan panoh topgan allomalar sirasiga kirgan, o'z homiysiga atab qasidalar bitgan, shunday ma'rifatparvar podshoh bilan zamondosh bo'lganidan faxr hissini tuygan:

Falak yillar kerak sayr etsayu keltirsa ilkiga,

Meningdek shoiri turku seningdek shohi dononi.

Sakkokiy lirikasining asosiy tematikasi sevgi-muhabbatni sharaflashdan iborat bo'lgan. Shoirning go'zal she'rlarini yod olmoq, ustalik bilan foydalanilgan so'z o'yinlaridan bahra olmoq, uning o'zbek she'riyatidagi o'rnini va ahamiyatini anglab yetmoq yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning vositalaridan biri bo'ladi, degan fikrimiz bor.

13-o'quvchi: O'zbek shoiri Durbek, Gadoiy, Atoiylar ijodini o'rganish ham juda ahamiyatli, deb o'ylaymiz. Temur va temuriylar davrining iste'dodli shoiri, asli Balxlik Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni juda shuhrat qozongan. Gadoiyning yagona devonining asl nusxasi hozirda Parij milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Atoiy – lirik shoir bo'lib, uning g'azallari sodda va ravon tilda yozilgan. Shu jihatdan u xalqqa juda yaqin. Devonini o'qiganmiz.

1-boshlovchi: Juda uzoq yillar davomida sohibqiron Amir Temur nomi tilga olinmadi, tarix darsliklari, adabiy asarlardan chiqarib tashlandi. Sobiq SSSRda Temur shaxsi va temuriylar davri haqida gapilganda, tirnoq ostidan kir qidirildi, uning faqat salbiy tomonlariga urg'u berildi. Akademik Ibrohim Mo'minov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rnini" risolasi uchun badnom qilindi ... Amir Temurning va boshqa temuriylarning go'rlari kovlanib, suyaklari ag'dar-

to'ndar qilindi. Bu o'zbek millati sha'niga va tarixiga adolatsiz yondashuvning zamirida avlodlarni ajdodlardan ayirish, millat o'z tomirlarini bilmasligi uchun qilingan harakatlar edi.

2-boshlovchi: Mustaqillik sharofati bilan, shaxsan yurtboshimiz boshchiligida bu noodilona munosabatga chek qo'yildi, yoshlarimiz tarixni ishonchli manbalardan o'qib o'rganishlari imkoniyati tug'ildi. Amir Temurning bunyodkorlik ishlari, ilm-fan va madaniyat ishlariga qilgan homiyliklari, shaxsiy hayotini misol qilib to'la ishonch bilan ayta olamizki, Amir Temur bizning milliy iftixorimiz, uning hayoti va faoliyati bilan faxrlanamiz, unga munosib vorislar bo'lib, millatimizning kelajagi yo'lida o'qiymiz, ishlaymiz va hayot kechiramiz.

III BOB. IX-XV ASRLARDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK G'OYALARINI O'RGANISHGA DOIR PEDAGOGIK EKSPERIMENT NATIJALARI TAHLILI

3.1. TAJRIBA BOSHIDA O'QUVCHILARNING MAVZIGA DOIR BILIMLARI TAHLILI

1-son Samarqand pedagogika kollejida «Pedagogika» faniga 78 soat ajratilgan, shundan 56 soat ma'ruza, 22 soat amaliy mashg'ulot. Bu fanning asosiy vazifalari kollej talabalarida pedagoglik kasbining vujudga kelishi, mazkur kasbning jamiyat taraqqiyotida o'rni, buyuk mutafakkirlarning pedagoglik kasbiy to'g'risidagi fikrlari, pedagogning kasbiy, hissiy-irodaviy va axloqiy sifatleri, ta'lim tizimi, barkamol shaxsni shakllantirish muammolari, ta'lim va tarbiya nazariyalari hamda ta'lim-tarbiya metodlari to'g'risida bilimlarni berish, shuningdek ularni umumpedagogik madaniyati va ma'naviy sifatlarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga psixologik va amaliy tayyorgarligini shakllantirishdan iboratdir.

Millatimizning buyuk mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari va ma'naviy merosi asosida yuksak fazilatlarga ega bo'lgan insonni shakllantirish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan bo'lib, ma'naviy xislatlarga ega bo'lish muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligi, uni har bir insonda tarbiyalash birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Yuksak ma'naviyat uchun kurash murakkab jarayon. Zero, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlamasdan, uning har bir a'zosida yuksak ma'naviy sifatleri rivojlantirmasdan turib farovon va madaniy hayotni qurish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashni davlatimizning yangilanishi va taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'kidlagan [2,29].

Xalqimizning ildizlari qadim tarixga borib taqaladigan ma'naviy qadriyatlari azaldan umuminsoniy yuksak fikr va g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Barkamol shaxs tarbiyasi muammolari bilan shug'ullanadiganlarning bugungi vazifasi - ajdodlarimiz tomonidan asrlar osha to'plangan ma'naviy boyliklarni yosh

avlodning chinakam mulkiga aylantirish, bu bilan yoshlarni ma'naviy barqaror, o'z Vataniga sodiq qilib tarbiyalashdan iborat.

Pedagogika fanini o'qitish ta'lim muassasalarining ma'lum didaktik tamoyillari: ilmiylik, tarixiy ma'lumotlarni hayot bilan bog'lash, izchillik va tizimlilik, ko'rgazmalilik, kasbiy yo'nalganlik, individual xususiyatlarni hisobga olish asosida quriladi.

O'qitishni tashkil etishga asosiy talablarni ifoda etgan tamoyillar soni doimo bir xil bo'lib qolavermaydi. Hayotning o'zi pedagogik ta'limga jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi-ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillarini ilgari surdi. Bizning nuqtai nazarimizda, ularning orasida eng ahamiyatlisi:

- o'quv ishlarida talabalarining ijodiy faolligi, ongliligi, mustaqilligi;
- o'quv jarayonida o'qituvchi va talabalarining birligi va ijodiy hamkorligi, o'qituvchilarning boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik roli va hokazolar.

Tarixiylik tamoyili, masalan, o'qitishning talabalarini nafaqat o'quv fani, ularning mohiyati, xususiyatlari, keyingi rivojlanish istiqbollari bilan tanishtirish, balki qachon, qaysi sabablar bilan yuzaga kelgani, ildizlari haqida bilim berishni ham nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan tadqiqot ishimizda pedagogika fanini o'qitishda kolleji talabalarida mutafakkirlarimizning ulkan ma'naviy merosi va pedagogik qarashlarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari o'tkazishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi, vazifalari pedagogik fanini o'qitishda talabalar ongiga IX-XV asrlardagi ijtimoiy pedagogik g'oyalarni singdirish bo'yicha «Pedagogika» fani materiallari misolida fanning predmeti, dastur, o'qitish texnologiyasi uchun tuzildi.

2. Sosiologik uslublari (anketa so'rovi, suhbat, intervyu). Tajriba va nazorat guruhlarining talabalar soni, pedagogika fanida talabalarining mavzuga oid bilim darajalari bir xil bo'lishi ta'minlanadi. Tajriba guruhda ham nazorat guruhda ham yangi ta'lim mazmuni noan'anaviy usullar bilan o'tildi.

3. Tajriba va nazorat guruhlariga bir xil savollar tayyorlash.

4. Tajriba-sinov ishlarining asosiy negizi tajriba va nazorat guruhi talablari asosida talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalanganlik darajalari taqqoslandi.

Xorazm Ma'mun akademiyasi haqida

savol-javob o'tkazish

1. S: Ma'mun akademiyasida yetakchi olim va rahbar bo'lib ishlagan alloma?

J: Beruniy.

2. S: Ma'mun akademiyasi necha yil faoliyat ko'rsatgan?

J: 13 (14) yil.

3. S: 2006 yil Ma'mun akademiyasining necha yilligi nishonlandi?

J: 1000 yilligi.

4. S: Akademiyalar ichida Xorazm Ma'mun akademiyasiga nechanchi bo'lib asos solingan?

J: 3-bo'lib

5. S: Ma'mun akademiyasidan oldingi akademiyalar?

J: 1 mil. av. Afinada, 2 – Xorun ar-Rashid.

6. S: Ma'mun akademiyasi nechanchi yilda qurilgan?

J: 1010 yilda.

7. S: Ma'mun akademiyasi Xorazmning qaysi shahrida bunyod etilgan?

J: Urganchda.

9. S: Ma'mun akademiyasida Beruniydan tashqari yana qaysi allomalar ish olib borganlar?

J: Ibn Sino, faylasuf Abu Sahl Masihiy, tabib Abu Xasan Hammor, Abu Abdullox Iloqiy, Ibn Iroq, Abu Ali ibn Miskavayx, Ahmad ibn Said al-Javhariy, Abu Mansur as-Saolibiy va boshq.

10. S: Ma'mun akademiyasi qaysi Xorazmshoh davrida paydo bo'lgan?

J: Abu Abbas Ma'mun ibn Ma'mun II.

11. Ma'mun akademiyasi tarqab ketishiga nima sabab bo'lgan?

J: Mahmud G'aznaviy bosqini.

12. Mahmud G'aznaviy Ma'mun akademiyasi olimlarini qayerga olib ketgan?

J: G'azna shahriga.

Abu Rayhon Beruniy mavzusiga oid tezkor savolga

tezkor javob

1. S: Beruniyning dastlabki yirik asari.

J: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».

2. S: Beruniy qaysi akademiyaga rahbarlik qilgan?

J: Xorazm Ma'mun akademiyasiga.

3. S: Akademiyani boshqargan paytida qanday maktabni yaratgan?

J: Falsafiy pedagogika maktabini.

4. S: Beruniyning ustoz kim?

J: Abu Nasr ibn Iroq.

5. S: Beruniy boshqargan akademiya necha yil faoliyat ko'rsatgan?

J: 13 - 14 yil.

6. S: Beruniy o'sha paytda keng tarqalgan o'qitishning qaysi usuliga qarshi chiqadi?

J: Sxolastik.

7. S: «Jo'rttaga o'z so'zida turib olgan bilimsiz kishi bilan baholashish na maqsad egasiga, na maqsadga biron foyda yetkazmaydi».

Ushbu fikr Beruniyning qaysi asaridan olingan?

J: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».

8. S: Beruniy Xorazmda kimning yaqin maslahatchisi bo'lgan?

J: Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun II.

9. S: Beruniy so'zining ma'nosi nima?

J: «Shahar tashqarisida» degan ma'noni anglatadi.

10. S: Beruniy umrining oxirgi yillarini qayerda o'tkazadi?

J: G'aznada.

11. S: Beruniy umrining oxirgi yillarini qaysi hukmdor hukmi ostida ijod qiladi?

J. Mahmud G'aznaviy.

12. S: Beruniyning ikkinchi katta asari.

J: «Geodeziya».

13. S: Beruniyning nechta asari bo'lgan va bizgacha yetib kelgan asarlari nechta?

J: 152 ta, 31 tasi yetib kelgan.

14. S: Yahyo G'ulomovning qayd qilishicha, Beruniyni qaysi davlat bilan savdo va siyosiy aloqalari bo'lgan?

J: Qora dengiz bo'yi, Sharqiy Yevropa, Volga bo'yi.

15. S: Beruniy Yevkledning «Negizlar» va Ptolomeyning «Almagest» asarlarini qaysi tillarga tarjima qilgan?

J: hind tili – sanskret tiliga.

**Abu Ali ibn Sino mavzusiga oid guruhlararo
savol-javob o'tkazish**

1. S: Abu Ali ibn Sino qanday ishi uchun saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan?

J: Somoniy davlati rahbari Nuh ibn Mansurni davolagani uchun.

2. S: Abu Ali ibn Sino nima uchun Xorazmdan mahfiy ravishda qochib ketadi?

J: G'azna xukmdoriga tobe bo'lishni istamagani uchun.

3. S: Abu Ali ibn Sino Hamadonga kelgach qanday lavozimlarda ishlagan?

J: Saroy tabibi, so'ng vazir.

4. S: Abu Ali ibn Sino qanday kasallikdan vafot etgan?

J: Qulunj va tutqanoq.

5. S: Abu Ali ibn Sinoning bizgacha nechta asari yetib kelgan?

J: 240-242 ta.

6. S: Abu Ali ibn Sinoning falsafaga bag'ishlagan eng yirik asari?

J: Kitob ush – shifo.

7. S: Abu Ali ibn Sino «Hay ibn Yaqzon», «Uyg'on o'g'li Tirmk» asarini qayerda yozgan?

J: 1023 yili Faradjo qal'asi qamoqxonasida.

8. S: Abu Ali ibn Sinoning G'arbdagi nomi?

J: Avisena.

9. S: Abu Ali ibn Sinoning eng so'nggi yirik falsafiy asari?

J: Ishoralar va tanbehlar.

10. S: Abu Ali ibn Sinoning qaysi asarini Geradot tarjima qilgan va u Ovro'pa universitetida o'qitilgan.

J: Tib qonunlari kitobi.

11. S: Abu Ali ibn Sino necha yoshida hokim bo'lib shuhrat qozonadi?

J: 22 yoshida.

12. S: Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri Manzil» asarida nimalarga ko'proq ahamiyat berilgan?

J: Oila muhiti, bola tarbiyasi.

13. S: Abu Ali ibn Sinoning qaysi asarini XI asrning «Tibbiyot qomusi» desa bo'ladi?

J: «Qonun».

14. S: Abu Ali ibn Sinoning qaysi asari G'arb mamlakatlarida XVIII asrgacha tibbiy qo'llanma bo'lib kelgan?

J: Tib qonunlari.

15. S: Abu Ali ibn Sino tug'ilgan joyning bugungi kundagi to'liq manzili?

J: Buxoro viloyati, Peshku tumani, Afshona qishlog'i.

17. S: Abu Ali ibn Sinoning asarlari bizda hozir qayerda saqlanadi?

J: Toshkent. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida.

16. S: Abu Ali ibn Sino necha yil umr ko'rgan?

J: 57 yil.

17. S: Abu Ali ibn Sinoning so'nggi nafasigacha birga bo'lgan eng yaqin shogirdi?

J: Abu Ubayd Juzjoni.

18. S: Abu Ali ibn Sinoning «o'rjuza fit-tib» asari nechanchi yil o'zbek tilida va qayerda bosilib chiqilgan?

J: 1972 yil, Toshkentda.

Olib borilgan viktorina savollar natijasini quyidagi jadvalda kuzatamiz:

**«Tezkor savolga – tezkor javob»
viktorinasi natijalari**

T/r.	O'zlashtirish ko'rsatkichi (foizlarda)	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	past	57	45
2.	o'rta	33	30
3.	yuqori	10	25

3.2. TAJRIBA DAVOMIDA O'QUVCHILARNING MAVZIGA DOIR BILIMLARINING SHAKLLANISH DARAJASI VA TAHLILI

Muammoga doir tajriba-sinov ishlari 2011–2012 o'quv yilida amalga oshirildi.

Unda jami 156 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari 1-son Samarqand pedagogika kollejida 156 nafar o'quvchi sinovdan o'tgan.

Amaliy mashg'ulotlarda mutafakkirlarning ilg'or fikr va g'oyalari asosida o'quvchilarning mavzuga doir bilimlarining shakllanlik darajasi aniqlandi.

Olingan natijalarni umumiy holda quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz.

3.2.2(b)-jadval

T/r	Guruhlar, darajalar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		Tajriba-sinov boshida (N ₁ =78)	Tajriba-sinov oxirida (N ₁ =78)	Tajriba-sinov boshida (N ₂ =78)	Tajriba-sinov oxirida (N ₂ =78)
1.	Past	33	16	34	32
2.	O'rta	25	30	24	25
3.	Yuqori	20	32	20	21

Biz har ikki guruhda tajriba-sinov birinchi bosqichdagi ko'rsatkichlar bilan $T=(X_o/X_b) \cdot 100\%$ va $N=(U_o/U_b) \cdot 100\%$ formulalar orqali nisbiy solishtirganimizda quyidagi natijalarga ega bo'ldik. Bu yerda X_b va U_b tajriba-sinov boshidagi baholash mezoni tajribani o'tkazishdan oldin, X_o va U_o tajriba oxiridagi baholash. Sharqning qomusiy olimlari talablari doirasida talabalarning ma'naviy sifatlarini o'rganish bo'yicha ularning bilim, malaka va ko'nikmalari o'sishining qiyosiy natijalari quyidagicha bo'ldi:

Mavzuga oid bilimlarning rivojlanganlik darajasining qiyosiy natijalari

T/r	Guruhlar, darajalar	Tajriba guruhi (N ₁ =150)	Nazorat guruhi (N ₂ =150)
1.	Past	$T_1 = \frac{16}{33} = 48,5$	$N_1 = \frac{32}{34} = 94.1$
2.	O'rta	$T_2 = \frac{30}{25} = 120$	$N_2 = \frac{25}{24} = 104.1$

3.	Yuqori	$T_3 = \frac{32}{20} = 160$	$N_3 = \frac{21}{20} = 105$
----	--------	-----------------------------	-----------------------------

Bu jadvaldan ko'rinadiki, pedagogik tajriba-sinov natijasida tajriba guruhidagi ko'rsatkichlarning quyi darajasi deyarli ikki barobar kamaygan va aksincha yuqori daraja esa 1,5-2 barobar ortgan (T_3 va N_3); nazorat guruhida esa bu mezonlar sezilarli o'zgarmagan (N_1 va N_3).

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar kechayotgan hozirgi kunlarda talabalarning milliy-ma'naviy merosimiz asosida ma'naviy rivojlantirish masalalari alohida dolzarblik kasb etdi.

Chunki, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari merosidan foydalanish yanada samarali bo'lishiga olib keldi. Haqiqatdan ham bu ma'naviy merosimiz turli pedagogik muammolarni hal etishda, eng muhimi, ma'naviy barkamol insonni rivojlantirish va bu bilan pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ulkan imkoniyatlarga egadir.

Barkamol avlod sifatlarini shakllantirish tizimi pedagogika fanini, O'zbekiston tarixi, falsafa, etika, xususiy metodika fanlari bilan o'zaro aloqada o'qitish jarayonida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Bu borada pedagogika kursini o'qitishning turli xil yo'llari, usul va vositalari ayniqsa katta imkoniyatlarga ega.

Talabalarni IX-XV asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar hayoti, ilmiy faoliyati, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalari bilan tanishtirish natijasida ular ongi va xulqida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Tadqiqot jarayonida talabalar qanday yashash, o'qish va ishlash kerakligiga namuna, o'rnak bo'la oladigan allomalarning ilg'or fikr va g'oyalari bilan tanishtirish imkoniyatlari ochib berildi; ular ongi mutafakkirlar turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda qanday faoliyat ko'rsatganligi haqidagi bilimlar bilan boyitildi; tarbiyaning mohiyati, maqsadi, tarkibiy qismlari: aqliy, estetik, jismoniy, mehnat va, ayniqsa, talabalarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalash haqidagi tushuncha va tasavvurlari kengaytirildi; Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya masalalarini talqin qilishda uning ustuvorligiga ishontirildi va isbotlandi; kasbiy va ma'naviy sifatlarini tarkib toptirish uchun tinimsiz mehnat hamda shaxsiy sifatlarini takomillashtirib borish zaruriyati tushuntirildi. Talabalarda o'zining

buyuk yurtdoshlari, dunyo ilm-fani, jumladan pedagogika fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar bilan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ldi; Vatanga muhabbat, uning tarixi, an'analari, xalq pedagogikasi xazinasiga qiziqishi orttirildi; xalqimizning buyuk allomalari merosini mustaqil ravishda yanada chuqurroq o'rganishga ishonch hosil qilindi.

Gurganjda tashkil topgan «Olimlar uyushmasi» tarixda Ma'mun akademiyasi nomi bilan shuhrat qozondi va Sharqda madaniy hamda ilmiy yuksalishda katta ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot ishida dunyo sivilizasiyasi ilmiy markazi sifatida ushbu markazda faoliyat ko'rsatgan olimlarning pedagogik qarashlariga katta e'tibor berildi.

Ma'mun akademiyasining ahamiyati shundan iborat ediki, u yerda Xorazmshoh Ali ibn Ma'munning rahnamoligida fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, dorishunoslik kabi dunyoviy ilmlar rivojlangan edi; insonning koinotga parvozi haqidagi g'oya va uning amaliy qo'llanishi shu akademiya tufayli dunyoga keldi; akademiya mamlakatlar o'rtasida madaniy va ilmiy aloqalar mustahkamlanishiga ko'maklashdi; akademiya ilgari surgan gipotezalar, fikr va g'oyalar fanning kamida besh yuz yillik rivojida boshqaruvchi vazifasini o'tadi; shu ilmiy markaz tufayli qator olimlarning ma'naviy tarbiyaga oid qarashlari hozirgi kungacha yetib keldi.

Tadqiqotda Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi mutafakkirlarining ta'limotlari tizimlashtirilib tahlil etildi hamda ularning pedagogik fikr va g'oyalaridan talaba-yoshlarning ma'naviy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasida foydalanish yo'llari, shakl va usullari aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari tavsiya etilgan tashkiliy-uslubiy ishlar samaradorligini ko'rsatdi. Xususan, nazariy xulosalar va ilmiy fikr va g'oyalarning amaliyotga tatbiq etilishi biz ilgari surgan faraz to'g'riligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijasida yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Hozirgi davrda yosh avlodning intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlantirmay turib jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi. Bu borada O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti katta pedagogik ahamiyatga ega ekanligi o'zining ilmiy isbotini topdi.

2. Pedagogika o'quv fani bo'yicha DTS, dastur va o'quv qo'llanmalari darsliklar tahlil etilganda pedagogika kollejlari pedagogika fani materiallarini o'rganishda talabalarning mavzuga oid bilimlarini shakllantirishda katta imkoniyatlar mavjudligiga qaramay, ulardan to'liq foydalanilmayotgani aniqlandi.

Pedagogik fikrlar taraqqiyotida O'rta Osiyoda mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikr va g'oyalari o'z davri jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda keyingi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasida aql-idrok, bilim, yaratuvchilik, ijodkorlik, xulq-odob, insoniy munosabatlar, mehnatsevarlik, sog'lom turmush tarzi kabilarni tarkib toptirishda o'z ahamiyatini yo'qotmaganini asoslab berildi.

3. O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida tarbiya tizimida o'ziga xos umumiylik mavjud bo'lib, bu umumiylik iymon-e'tiqod, ona-Zamin, Vatanga muhabbat, erksevarlik, adolat, xalqparvarlik, insonparvarlik, xulq-odob qoidalari bosh g'oya tarzida fikrlar mahsuli bo'lib, talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi.

4. Pedagogika fanini o'qitishda kollej talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikr va g'oyalarni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv material mazmuniga mantiqiy jihatdan to'g'ri bog'lay olish, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay bilish, talabalarning o'z fikrlarini qiyoslash, chog'ishtirishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish samaradorligi pedagogik tajriba-sinov natijasida o'z tasdig'ini topdi.

Bayon etilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagilarni tavsiya qilamiz.

TAVSIYALAR

1. Pedagogika fanini o'qitishda mutafakkirlarning ijtimoiy pedagogik g'oyalarni talabalar ongiga singdirish mohiyati, asosiy fikr va g'oyalarni pedagogika turkum fanlarining dastur, o'quv qo'llanmalari, darsliklar tarkibiga kiritish hamda ta'lim jarayoniga joriy etish.

2. Pedagogika o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash bo'yicha pedagogika kafedralarida maxsus mutaxassis–pedagoglar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish.

3. Pedagogika kollejlarda pedagogika fani o'quv rejalariga mutafakkirlarimizning ijtimoiy pedagogik g'oyalari va ta'lim-tarbiya tizimiga oid qarashlarini o'quvchilar ongiga singdirish maqsadida «Ajdodlar me'rosi – oliy ne'mat» degan kurslar kiritish.

4. Pedagogika fani dasturiga Sharq mutafakkirlarning pedagogik ta'limoti va Ma'mun akademiyasiga oid o'quv soatlarini kiritish.

5. Kollej hududlarida va yotoqxonalarda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash mohiyati, maqsadi, vazifalari, milliy qadriyatlar hamda an'analarni talabalar ongiga muttasil singdirib borish maqsadida radio va telemarkaz tashkil qilish, maqsadli eshittirish va ko'rsatuvlar uyushtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYATLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 1998. –48 b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 80 b.
3. Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'. – T.: O'zbekiston, 1992. – 62 b.
4. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. – T.: O'zbekiston, 1993. – 60 b.
5. Karimov I.A. Halollik va fidoiylilik faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin, – T.: O'zbekiston, 1994. – 70 b.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. – 64 b.
7. Karimov I.A. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi, 1997 yil 21 oktyabr.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 326 b.
9. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni –millat qilishga xizmat etsin. – T.: O'zbekiston, 1998. – 30 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – 682 b.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 7 - jild. 1999. – 410 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 49 b.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. - 171 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma'mun Akademiyasini tiklash to'g'risida» Farmoni. № UP-1880. 1997 yil 11 noyabr. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Bayonnomalari; №10 (1258). – 22-23 b.

15. «Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori. 2004 yil, 10 noyabr // Ta'lim muammolari. – Toshkent, 2006. – №1. – B. 4.
16. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so'zi, 2006 yil, 25 avgust. – B. 1.
17. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni. 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq matbaa-nashriyot konserni, 1997. – B. 20-29.
18. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq matbaa - nashriyot konserni, 1997. – 61 b.
19. Abu Mansur as-Saolibiy. Ajoyib ma'lumotlar. (Tadqiq qiluvchi, tarj., izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I. Abdullayev). T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1995. – 144 b.
20. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 212 b.
21. Abu Ali ibn Sino. Tarjimai holi. – T.: Fan, 1980. – 44 b.
22. Babashev F. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlari: Ped. fan. nom. ... yozilgan dis. – T.: 2000. – 145 b.
23. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, Maxpirat nom. O'rta Osiyo xalqlari tarixi instituti, 1999. – 152 b.
24. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
25. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994.–135 b.
26. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: – Ped. fan. dok. ... yozilgan diss. – T.: 1998. – 288 b.
27. Nosirov K.J. Idei mysliteley Sredney Azii IX-X vekov o npravstvennom

vospitani: Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. – T.: GFNTI, 2000. – 20 S.

28. Ortiqov N. Ta'lim va islom: yoshlarni tarbiyalashdagi muammolar va yechimlar. – T.: Fan, 1994.
29. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 208 b.
30. Temur tuzuklari: Ahmedov B. tahriri ostida. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi, 1991. – 144 b.
31. Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. – T.: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
32. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot. – T.: Fan, 1994. – 75 b.
33. Quronboyev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faoliyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... yozilgan dis. – T.: 2000. – 156 b.
34. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... yozilgan dis. – T.: 1998. – 316 b.
35. WWW.ziynet.uz
36. WWW.Google.uz
37. WWW.Ref.uz
38. WWW.Yandex.ru
39. WWW.Bing.ru
40. WWW.Mail.ru